

Обложка

**BAXT SHAHRI**

Yelena Sokolova

Bolalar va kattalar uchun ertaklar

“Utro” nashriyoti

Moskva

## Titul.list

BBK 84.4  
S59

### Suratlar

*Anna Grishenkoniki*

Adabiy qayta ishlovchi

*Galina Suljenko*

### **Sokolova Ye. G.**

S59 Baxt shahri. — SPb.: LKS, 2012. — 80 s. — (Tilla qo‘ng‘iz).

ISBN 977-5-982937-43-5 (*Utro*)

Yelena Sokolovaning yangi kitobi ko‘pchilikni xursand qiladi. Zotan, bu muallif ko‘pchilikning qalbidan joy olishga ulgurgan. Yaxshi ertaklarni qadrlaydigan kitobxonlar uchun bu ertaklar haqiqiy kashfiyot bo‘ladi. Uning ertaklaridagi voqealar va masallar shaklan sodda, mazmunan chuqur bo‘lib, bolalarni va kattalarni Muqaddas Kitob haqiqatiga yo‘naltiradi, gunohga va yolg‘onga to‘la hayotdan nur va ezgulikni izlashga da'vat qiladi.

BBK 84.4  
S59

Yo'lovchining kiyimiga tikonlar ilashib qolar, yalang oyoq'idan qon oqardi. Yo'lovchi oyoq kiyimini yechib olgan, chunki oyoqlari shilini ketgandi. Odamlar bu kambag'al qishloqdan shaharga yuraverib, allaqachon so'qmoq yo'l hosil qilgan edilar. Qishloq aholisi qishloqda yetishtirilgan mahsulotlarni: saryog', qaymoq, tuxum, tvorog, sabzavotlar va asal sotish uchun shaharga keltirishardi. Yo'lovchi o'zi yetishtirgan asalni bozorga olib ketyapti. U shahar chekkasida yiqilgan daraxt oldida to'xtadi, shu yerda bir oz dam olmoqchi bo'ldi. Qolaversa, xaridorlarni shu ahvoli bilan cho'chitib yubormaslik uchun o'ziga qarab olishi ham kerak edi. Yo'lovchi o'tirib dam oldi. Endi bu yog'iga yalang oyoq borsa, odamlar unga xavotirlik bilan qarashlari mumkin. Shuning uchun u oyoq kiyimini kiyishga chog'landi, lekin poyafzaliga oyog'i sig'madi. Eskirib ketgan, qo'pol poyafzali oyog'ini shilib tashlaganidan, xuddi yarasiga tuz sepganday bo'ldi.

Yo'lovchi atrofiga qarab, yerda o't - o'lanlar orasida shapaloqday-shapaloqday keladigan yam-yashil barglarga ko'zi tushdi. Barg, yo'lovchining nazarida, xuddi "Qara, biz shu yerdamiz" deganday butalar orasidan bo'y ko'rsatayotganday edi. Yo'lovchi qo'llari bilan barglarni siladi. Barglar sovuq, ayni paytda mayin edi. U barglarni uzib, oyoq kiyimi ichiga tiqdi, shundan keyin poyafzalini bemalol kiydi. Oyog'idagi og'riq ham darrov to'xtadi. U asalini yaxshi pullab, uyga qaytayotganda, yo'lovchi shapaloqday-shapaloqday barglarni uzib olgan joyda yana to'xtadi. Poyafzalini yechib, urug'lagan katta-katta barglar ustidan yalang oyoq yurdi, keyin kiyimlariga ilashadigan tikonlar ustidan shaxdam qadam tashlab, qishlog'i tomon yo'l oldi. Shu tariqa shifobaxsh o'simlik urug'lari yo'l-yo'lakay atrofga tarqaldi, bu foydali o'simlik juda ko'p joylarni egallab boraverdi.

Yo'lovchi ajoyib va shifobaxsh o'simlik haqida qishloqdoshlariga hikoya qilib berdi. Odamlar esa katta bargli o'simlikni qidirib, oyoq toliqishini shifolash uchun uning ustidan yalang oyoq yurishaverdi. Kelgusi yil shaharga boradigan so'qmoq yo'l bo'ylarida ajoyib kattakon bargli o'simliklar qator bo'lib o'sib chiqdi. Ular urug'idan ko'payib, yo'lovchilarning oyoqlari orqali tarqalib ketdi. Katta mayin barglar yo'lni qoplab oldi, odamlar esa oyoq kiyimlarini yechib, barglar ustida yurishardi, shu tariqa bu o'simlik urug'lari tarqalaverdi. Bu o'simlik shunchalik tez ko'payib ketdiki, yo'lovchilarning kiyimlariga ilashib oladigan o'simlik endi yo'lovchilarning yurishiga halaqit bermas, shifobaxsh o'simlik bu tikonlarni siqib qo'ygandi. Endi tikonlar ko'paya olmasdi. Tikonlar jahl bilan katta mayin barglarga g'azabini sochdilar:

--Necha yildan beri chakalakzorimiz bilan seni bo'g'ib qo'ygan edik! Hammasi behuda bo'ldi! Nimaga sen shunchalik muloyim, beozor, umuman zararsiz, biz esa shunday aqlli va uddaburon bo'la turib, sen kuchli bo'lib chiqding-a?

-Sizlar odamlarga qarshi kurashib kelgandingizlar, men bo'lsam odamlar tomonda turib kurashdim, -sokin ovozda ohista gapirdi Zubtutum.

## Qo'ng'iz, Odam va Atirgul

Qo'ng'iz oyoqlarini harakatlantirib, ajoyib xushbo'y shirinlik izlab, atirgulning eng baland shoxiga chiqa boshladi.

Yaqinroq yo'lni ham tanlasa bo'lar edi, lekin ziyofat xam shunga yarasha kamtarona bo'lardi-da. Chunki pastki shoxlardagi gullarning shirasi ozroq bo'ladi. Yozning tafti baland quyoshidan va yoqimli shabada nafasidan paydo bo'lgan qip-qizil yaproqchalar hidi hammani o'ziga jalb etyapti. Nihoyat, qo'ng'iz gulning o'rtasiga yetib kelib, totli gulshirani yemoqchi bo'ldi. Shu payt yuqoriga qaragan edi, bog'da sayr qilib yurgan odamni ko'rib qoldi. Qo'ng'iz o'yladi:

"Agarda men odam bo'lganimda edi...uzoq sudralib yurishimga va azoblanishimga to'g'ri kelmas edi. Bir qadam bossam bo'ldi – gulshira meniki!"

Odam gulning go'zalligiga mahliyo bo'lib turar ekan, shoxchadagi qo'ng'izni ko'rib qolib, o'yga toldi: "Agarda men qo'ng'iz bo'lganimda edi....buncha ko'p mehnat qilishimga to'g'ri kelmasdi. Mayin barglar ustida o'rmalab yurib, mana shu shirinlikdan maza qilib yerdim."

Shu zohoti qo'ng'iz odamga aylanib qoldi. Qo'ng'iz-odam chiroyli atirgulni ko'rib, zavqlandi, gulni uzib olib, hidladi-da, kostyumining ilgagiga taqib oldi.

Odam esa shu zohoti qo'ng'izga aylanib qoldi. Odam-qo'ng'iz atirgulning shoxiga tirmashib chiqa boshladi, barglarining mayinligini oyoqlari bilan sezdi, ochko'zlik qilib gulshirani yeb qo'ydi va atrofga alanglab, yana gul qidira boshladi.

Qo'ng'iz-odam odam-qo'ng'izga mensimasdan qarab, kostyumiga taqib olgan gulni to'g'rilab qo'ydi-da, boshini chayqadi:

-Bechora hashorot, faqat qornini o'ylaydi, xolos, shunday go'zallikni oyoq osti qilib yurganini anglamaydi.

Odam-qo'ng'iz qo'ng'iz-odamga achinish bilan nigoh tashlab, ochko'zlik bilan qornini qappaytirib bo'lgach, boshini chayqadi:

-Bechora, atrofni aylanib yuribdi-yu, o'zi uchun nima mazali ekanini bilmayapti. U ahmoq ekani gulni ziynat uchun takib olganidan ham ma'lum.

Qo'ng'iz-odam kostyumidagi atirgulga qarab qo'rqib ketdi:

-Ie, men odamga o'xshab fikrlayapman-ku! Agar gulshira yeya olmasam, menga atirgulning nima keragi bor?! Yo'q, aslo odam bo'lishni xohlamayman!

Qo'ng'iz-odam yana qo'ng'izga aylanib qoldi, xursand bo'lib, atirgulning baland shoxchalaridan eng lazzatli gulni qidirish uchun o'rmalab chiqib ketdi.

Odam-qo'ng'iz atirgul ustida o'tirib, atrofga g'amgin boqdi, keyin birdan qo'rqib ketdi.

-Ie, men qo'ng'izga o'xshab o'ylayapman-ku! Nimaga ajoyib gulning barglarini ezib yuribman, axir? Nahot men atirgulning go'zalligidan zavqlanishni unutib qo'ygan bo'lsam-a? Yo'q, hycham qo'ng'iz bo'lishni xohlamayman!

Odam-qo'ng'iz oddiy odamga aylandi-qoldi. U shoxda sudralib ketayotgan hashorotga yuqoridan qarab, tomosha qilib turardi.

Atirgul-chi... Atirgul baxtiyor edi, chunki u xursandchilik ulashdi. Ha, har birining o'ziga xos afzalligi bor.

## **Qorbobo**

Oppoq qor uyumi qishning quyosh nurlarida tovlanadi. Qarag'ay va archalar qor bilan qoplangan, go'yoki dabdabali bayramona libos kiyib olganday. Oppoq uychaning muzdan o'yib qilingan deraza tokchasida Qorbobo muzqaymoq yeb, televizor ko'rib o'tiribdi.

Katta shaharning keng ko'chalaridagi ko'p qavatli baland uylarda yashaydigan odamlar haqida hujjatli film namoyish etilayotgan edi. Shaharda ham qish. Odamlar tongda uyg'onib, uylarida sutli bo'tqa, kofe, buterbrod tayyorlayaptilar, quymoq pishiryaptilar. So'ng kimdir ishga, kimdir o'qishga, kimdir do'konga va yana kimdir shifoxonaga ketadi. Odamlar har xil: biri qo'pol, biri muloyim, biri yovuz, biri mehribon. Ular bekatlarda to'qnashib ketadilar, yo'llarni kesib o'taveradilar, transportlarda joy olishga shoshilishadi. Hammasida bir xil orzu - yangi yil kelsa-yu, sovg'alar olsa. Hamma sovg'asiz qolishdan vahimaga tushadi. Qorbobo ham Yangi yilni kutyapti, ammo shaharliklardan farqli o'laroq, u xotirjam. Chunki aniq biladiki, hamma sovg'a oladi: bolalar – o'yinchoqlar va shirinliklar, kattalar – shodlik va xursandchilik. Qorbobo ancha oldindan sayohatga tayyorgarlik ko'rib kelyapti, uning zarrin chanasi sovg'aga to'la.

Qorbobo televizordagi ko'rsatuvni ko'rib, kallasiga bir fikr keldi. Shaharga bir kun oldin borishni, odamlar bilan ko'chalarda to'qnashib, ular nimalar haqida o'ylayotganini, ularning Yangi yildagi orzularini televizor orqali emas, yuzma-yuz turib o'zlaridan eshitishni xohladi.

Qorbobo muz idishdagi muzqaymoqni va muz idishning o'zini ham yedi-da, televizorni o'chirdi. Uyhasidan chiqib, hovli orqali yaltiroq otxonasining darvozasi tomon yurdi. Otlar o'z xo'jayinlarining qadam tovushini eshitib, xursand bo'lib kishnadi. Darvoza ochildi, otlarning tovlanishidan Qorboboning ko'zi qamashdi.

- O qanday chiroyli otlarim bor-a! Mening sodiq do'stlarim! Bir kun oldin kelganimga hayron bo'lyapsizlarmi? Insonlar orasida bir kun mehmon bo'lishni xohlayapman.

Otlarning noroziligiga qaramay, Qorbobo o'z so'zida qattiq turib oldi.

-Men bilan tortishmanglar. Bilaman, siz haqingizda bilishmaydi, "E, Yangi yil bir kun oldin kelibdi-da", deb o'ylashlaridan qayg'uryapsizlar. Men ham bir narsani o'ylab qo'ydim, sizlar men bilan bir zum uchsalarimiz, manzilingizda bo'lasizlar. Shunda hych kim sezmay qoladi.

Bu so'zlardan keyin darvozani ochib, otlarga yaltiroq chanasini qo'shdi. O'zi esa rulga o'tirib, yo'lga tushdi.

Quyosh botgan. Qor bir tekisda yog'moqda. Oyna tozalagichlar peshoyalarni yaxshilab tozalayapti. Chana bo'lmasi esa issiq, shinam; yangi yil qo'shiqlari: "O'rmonda archa tug'ildi", "Salom, Yangi yil", "Sovuq qishning kichik archasi" kabi ko'plab qo'shiqlar birin-ketin yangrayapti. Qorbobo esa ba'zan tez, ba'zan sekin yuradi, xuddi shoshayotgan avtomobilga o'xshaydi. U yo'l qoidalarini yaxshi biladi, undagi belgilarga qat'iy rioya qilib kelyapti. Bitta belgi Yo'l harakati nazoratchisiga yakinlashganini bildirdi. Qorbobo tezlikni soatiga 40 kilometr ga tushirdi. Nazoratchi tayog'chasi bilan ishora qildi, Qorbobo to'xtadi. Nazoratchi o'zini tanishtirgach:

-Hujjatingizni ko'rsating !- deb murojaat qildi.

Qorbobo esa ketmonday keladigan katta qo'llari bilan orqa o'rindiqdagi hujjatlarini oldi.

-Nima olib ketyapsiz?- uzun oppoq soqolli xaydovchidan gumonsirab so'radi yo'l harakati nazoratchisi.

-Bolalarga sovg'a. Qorbobo yana nima olib ketishi mumkin?! Men kim ekanligimni ko'rmayapsanmi?! Eslaysanmi, yigirma besh yil oldin archa tagiga senga sovg'a qo'yib ketgan edim. O'shanda uxlamasdan, meni ko'rmoqchi bo'lgansan. Lekin men shunday ustalik bilan harakat qildimki, sen meni oshkor qilolmading.

Yo'l harakati nazoratchisi jiddiy ohangda so'radi:

-Siz artistmisiz?

-Yo'q. Senga aytdim-ku, men Qorboboman deb. Ana, hujjatimga qara, aniq yozilgan, rasmim ham bor.

-Yukingizning hujjatlarini ko'rsating.

-Yana qanaqa hujjatlar?! Bu yuk meniki. O'zimmiki. Bu yuklarga hujjatning keragi yo'q. Men bu sovg'alarni sotishga emas, bolalarga ulashgani olib ketyapman!

Yo'l harakati nazoratchisi, Qorbobo pora berishga ishora qilyapti, o'yladi va qat'iy ohangda iltimos qildi:

-Yukxonani oching, yukni ko'rsating. Tartib-qoida hammaga bir xil!

Qorbobo chanadan tushdi, uning uzun qizil choponini va etigini ko'rib, yo'l harakati nazoratchisi o'zini kulishdan arang to'xtatib qoldi. Yukxona ochilganda, xodim yuzini burishtirdi:

-Nima, siz hazillashyapsizmi? Mashina butunlay man etilgan yuk bilan to'la-ku! Buning ustiga hayvonlar ham bor ekan. Meni sizning ertaklaringizni eshitishga vaqtim yo'q, ko'cha qoidalarini buzganlik haqida hujjat

rasmiylashtirishim kerak.

Qorbobo dovdirab qoldi:

-Kanaqasiga man etilgan bo'ladi?! Nima man etilgan? Kuchukcha uchun vannacha – sening kizing Glashenkaning buyurtmasi! Shu ham man etilganmi?! Sen qizing Glashenka tug'ilgan kunida o'zing sovg'a qilgan kuchukcha bor-ku!

-Kaydan bilasiz mening qizim kuchukchasi uchun vannacha xohlayotganini? Aytganday, qaerdan bilasiz Glashenkani?

Qorbobo gap uqishi qiyin bo'lgan katta yoshdagi odamga kulib, iltifot bilan javob berdi:

-Axir, u menga xat jo'natgan. Sovutgichni muzxonasiga qo'ygan. Men hozir senga ko'rsataman, - deb choponining kattagina hamyonidan bir dasta xatlarni chiqardi-da, konvertsiz qog'ozni avaylab olib, nazoratchiga uzatdi. U xatni bir necha bor o'qib chiqdi, xat haqiqatan yuzlari, sochlari tilla rang kizchasi Glashenkaniki – bunga aslo shubha yo'q, aniq uning dastxati. Ammo u hamon gumonsirayapti.

-Bilasizmi, men hozir xizmatdaman, ertaklarga ishonishga haqqim yo'q. Lekin... Agar siz haqiqiy Qorbobo bo'lsangiz, otlaringiz osmonga ko'tarilsinchi?.

-Ular vaqtdan oldin ucha olmaydilar, bunga ruxsat yo'q. Aks holda Yangi yil muddatidan oldin kelib, ko'ngilsizlik yoki biron falokat keltirishi mumkin: kimdir "sevaman" deb aytishga, yana kimdir esa "kechir" deyishga ulgurolmay qoladi.

- E qo'ysangiz-chi, bularning hammasi bir bahona, xolos.

-Bilaman, dadangning aytganlarini bajarmaganingda, u har doim senga shu gapni takrorlagan. Lekin men senga aytaman: ota-onalarimiz nima qilgan bo'lsa, biz ham shuni qilishimiz shart emas.

Yo'l nazoratchisining ko'zlari baxtiyor bolalarning ko'zidek chaq nab ketdi.

-Sizning gaplaringizga ishongim kelyapti, nimaga shunday bo'lyapti ekan-a?

-Balki sen hali ertaklar aslida haqiqatligini esdan chiqarmaganingdan va Glashenkaga yaxshi kitoblar o'qib berganingdan bo'lsa kerak?

-Endi sizni ushlab turishga hych qanday haqqim yo'q, hurmatli Qorbobo! O'tishingiz mumkin. Qaerda bo'lsangiz ham, sizga omad.

Erta tongda Qorbobo shahar chekkasidagi parkning yonida to'xtab, signal berdi. Qorovul dorvozadan chiqiboq, xursandligini bildirdi:

-Qorbobo, azizim, seni ko'rganimdan juda ham xursandman! Nimaga bu safar ertaroq kelding? Men seni ertaga kelasan, deb kutayotgan edim.

-Salom, mehribon qorovulim! - javob berdi Korbobo o'z navbatida va egardan sakrab tushdi. – Shaharni bir sayr qilsam degan niyatim bor, odamlar orasida ham bo'lay-chi.

-Bunaqa kiyimda yurishing to'g'ri kelmaydi, ust-boshingni almashtirib olishing kerak. Menda faqat jinsi shim bilan kurtka bor, xolos.

-Juda kerakli narsalar, hozir hamma odamlar shunday kiyinishadi. Faqat men yarim soat uxlab olishim kerak, yo'lda charchadim.

Qorbobo korovulning uyida uxlab oldi. Kechqurun jinsi shim va yaltiroq kurtkani kiydi, uzun soqollarini kurtkaning ichida yashirdi-da, park darvozasi tomon yurdi. Tor ko'chalarning gavjum bekatlarida olomon ichida yurib, atrofdegilar nimalar haqida gaplashayotganiga quloq soldi. Manovi er-xotin Yangi yilni qaerda kutish to'g'risida o'zaro bahslashyapti. Yigit bilan qiz esa, archa sotib olishga pulimiz yetarmikan, deb pullarini hisoblashyapti. Anovi ikkita ayol "Olive" salatiga olma qo'shish kerakmi yoki qo'shmasa ham bo'laveradimi, deb maslahat qilishyapti.

-Voy, anovini qara, g'alati chol ekanmi!- dedi kimdir ajablanib.- Qish, havo sovib qolgan bo'lsa, u yupqa kurtka kiyib olibdi-ya! Tavba! Semizligini aytmaysanmi! Menimcha tarvuz yutib olgan-ov, qo'llarini qara, biram kulgiliyey! Xuddi Qorboboga o'xshab ketarkan!

Qorboboning oldiga o'n ikki yoshli bolakay yugurib chiqib, barmoqlarini nuqib uni ko'rsatdi. Bu o'tib ketayotgan olomonning diqqatini tortdi. Qorbobo esa xijolat bo'lib, orqaga – park tomonga yugurib ketdi. Bolakay esa undan qolmay, boshqa bolalarni chaqirdi:

-Hoy do'stlarim, kelinglar, uni qorbo'ron qilamiz!

Qorbobo qo'rqanidan, yuzlarini qo'llari bilan pana qildi-da, tez yugurib ketdi. Yigitchalar esa undan tezroq yugurishar ekan. Ular Qorboboga yaqin qolganlarida, dumaloqlangan qor bilan orqasidan gupillatib ura ketishdi. Qorbobo juda qo'rqib ketdi, duch kelgan birinchi do'konga kirdi.

-Biron narsa xarid qilasizmi?- jiddiy so'radi qorovul antiqa kiyingan gumondor cholga boshdan-oyoq razm solib.

-Yo'q, yordam bering! Bezori bolalar menga hujum qilyaptilar!

- Bu yer sizga ichki ishlar mahkamasi emas, bu yer – do'kon, birodar! Agar biron narsa sotib olmasangiz, bu yerdan chiqib ketishingizga to'g'ri keladi!

-Iltimos, meni haydamang!- dedi yig'laguday bo'lib Qorbobo. - Men sizning o'g'lingiz uchun zo'r sovg'a tayyorlab qo'yganman!

Qorovul kulgidan o'zini to'xtatolmay, bu tomoshaga chek qo'ymoqchi bo'ldi va unga:

-Senda qaerdan pul bo'lsin sovg'aga! Yana zo'r sovg'a emish! Axir, o'zing qip-qizil darbadar bo'lsang!- dedi.

-Men darbadar emasman, unafaq odamlarni men umuman tanimayman! Men Qorboboman! Sizlarga sovg'alar keltirdim.

-Boshimni qotirma, chiqib ket do'kondan!

Qorbobo boshini xam qilib, do'kondan chiqqan zohoti kallasiga yumaloqlangan qor kelib tegdi. Bu qilmishlaridan yigitlar juda shod edilar.

-Hyey darbadar, qaerda yashaysan? Seni manzilinggacha olib borib ko'yamiz!

-Bezorilar, to'polonchilar! - po'pisa qildi Qorbobo.- Politsiya chaqiraman hozir! Yo'l harakati nazoratchisidan tanishim bor! U dadalaringga jarima soladi!



-Xa-xa-xa!- kulishdi bezorilar,- juda kulgili-a! Politsiya bilan do'stmish. Bizning dadalarimiz esa prezident! Hammamizning dadamiz ham!

Shu atrofdan odamlar o'tib ketishyapti, Qorbobo esa ularga umid bilan qarayapti, go'yoki ular hyech narsa eshitmaganday, hyech narsani anglamaganday. Hyech kimdan najot kelishiga ko'zi yetmagach, bor kuchi bilan park tomon yugurib ketdi.

Yigitlar esa juda tez yugurardi. Parkning darvozasiga yetib kelishganda, Qorboboning kurtkasidan ushlab olishdi. Qorbobo ta'qibchi bolalar tomon o'girildi, qo'lini ular tomon cho'zdi-da, bir nima deb pichirladi. Shu onda bolalar muz haykalchalarga aylanib qoldi, so'ng muz haykalchalar chirs-chirs etib parchalanib ketdi. Endi qor bilan qoplangan yo'lakda bir necha muz uyumlari yotardi, ular singan shisha siniqlariga o'xshardi. Qorbobo barcha muz parchalarini qo'lqopi va qopiga yig'ib, qorovulning uyiga keldi. Avzoyi buzilgan Qorboboni ko'rib, keksa qorovul undan, shaharda nimalarni ko'rding, qanday ajoyib narsalar topding, deb so'ray boshladi.

-Eh,- alam bilan xo'rsindi Qorbobo, - agar bu shaharda ahvol qandayligini oldinroq bilganimda edi, hyech kim mendan sovg'a olmagan bo'lardi! Na bolalar, na kattalar! Hyech kim!

-Nima bo'ldi?

-Bolakaylar hujum qildi, mazax qilishdi, qor bilan do'pposlashdi... Do'kondan haydashdi... Hyech kim – tasavvur kilyapsanmi – hyech kim meni himoya kilmadi! Men Ayoz bo'lsam ham, baribir Qorboboman-ku!

-Kanday qilib qochib qutulding?

-Qanday emish! Men Qorbobo bo'lganim bilan, baribir, Ayoz bobo ekanman. Mana o'sha bezorilar, - deb Qorbobo stol ustiga qo'lqopi va qopidagi muz parchalarini uyum qilib to'kdi.

Qorovul qo'rqqanidan baqirib yubordi:

-Nima qilib qo'yding? Sen ularni muzlatib qo'yibsan-ku! Axir, ular sendan sovg'alar kutayotgan edilar!

-Vahima qilaverma, yaxshisi, menga yoritqichimni olib kel, aravamning ichida turibdi.

Qorovul osishga qulay bo'lgan yoritqichni olib tezda kaytib keldi.

-Yoritqich oddiy emas, u sehrli. Agar uning nurlari yurak atrofiga tushsa, butun yil bo'yi qilgan yaxshi ishlarini ko'rsatadi, hatto yurak muzlagan holatda bo'lsa ham, yurak urmasa ham. Mana, qarab tur.

Qorbobo yoritqichni stol tepasidagi bir uyum muz parchalariga tutdi. Muz uyumi nur tarata boshladi, devorlarda kamalak ranglari jilolandi. Muzga aylangan bolakaylarning xayollari xuddi oynai jahon ekranidagi singari devorda sur'at kabi namoyon bo'ldi. Mana, ulardan biri qushchalar uyini tuzatyapti. Yana biri esa singlisiga kitob o'qib beryapti. Uchinchisi esa onasiga yordamlashib, idishlarni astoydil yuvyapti. Shunga o'xshash sur'atlar ko'paygani sari, yoritqich nurlari tiniqlashib, qizib boraverdi. Stol ustidagi muzlar eriy boshladi. Stoldan tomayotgan tomchilardan ko'lmak hosil bo'ldi, ko'chada uni qorbo'ron qilgan

bezori bolalar paydo bo'lib, suvdan chiqa boshladilar. Nihoyat, bir to'da yigitchalar bir chetga qator bo'lib turdi. Faqat bittasi yo'q edi. Yoritqich tobora qattiq kizdirdi, lekin qolgan muz uyumidan devorga kamalak ranglari chiqmadi. Bu uyum ajabtovur boboni qor bo'ron kilishni boshlab bergan bola edi. Ayoq bobo qo'rqib ketdi:

-Yil bo'yi biror yaxshi ish qilmagan bolalar borligi haqida o'ylab ham ko'rmagan ekanman.

-Endi nima bo'ladi? – birdaniga baravar so'rashdi bolalar bilan qorovul. - Qanday qilib uni o'z holiga qaytarish mumkin?

-Bitta yo'li bor, - o'ychan holda soqolini siladi Qorbobo.

-Qanday yo'l ekan?

-Sizlarning orangizdan kimdir bu to'polonchining o'rniga yana bir marta muzga aylanishi kerak.

Yigitchalar bir-birlariga qarashdi, hiech kim yana muzga aylanishni xohlamasdi. Hamma jim, ko'zlarini yerga tikkancha turaverishdi.

-Vaqt tugayapti, - dedi Qorbobo, - bir ozdan keyin yoritqichim o'chadi, bu to'polonchi abadiy muzlagan cha qoladi.

-Yaxshi,-dedi bir yigitcha,-uning o'rniga men muzga aylanishga roziman.

Qorbobo qo'llarini silkitgan edi, dovyurak bola yana muz uyumiga aylanib qoldi. Yoritqichning nuri har soniya o'tgan sayin so'nib borar, ikkita muz uyumini yoritardi, xolos. Dovyurak bola devordagi kamalak ranglarida narigi bolaga – yovuzlik to'ridagi bolaga qo'llarini cho'zardi. Yovuzligicha qolgan bola dovyurakning qo'llarini ushladi. Dovyurak bolaning o'zi esa yovuzlik to'rida butunlay qolib ketmaslikka harakat qilardi. Dovyurak bola astoydil harakat qilib to'rni uzib tashlashga urindi, kaftlari qonab ketdi. Qon muz bilan aralashib, alvon rang tusga kirdi, muz erib suvga aylanishiga yordam berdi. Suv yerga tomchiladi, oxiri ikkita ko'lmak hosil bo'ldi. Ikkita yigit paydo bo'ldi, ikkovi ham benuqson, sog'-omon.

- Meni kechiring, - dedi bebosh bola Qorboboga,- men sizni qattiq xafa qildim, men hiech qachon ertak o'qimaganim uchun shunday bo'lib ulg'aydim.

-Hademay Yangi yil kiradi,- deya xursand bo'lib qarsak chaldi Qorbobo,- bu bayramda hiech kim kechirilmasdan qolishi kerak emas. Qani, endi shoshilishimiz kerak, hammangiz mening chanamga chiqinglar.

Gupillab yog'ayotgan qor ko'cha yoritqichlari nurida tovlanyapti. Yaltiroq chana o'zidan qor uchqunlari chiqaryapti. Qorbobo bir zumda yigitchalarni kerakli manzilga eltib qo'ydi. Yigitchalar uylariga yetib kelishganda, archa tagida hammalari yil bo'yi orzu qilib kutgan sovg'alarini ko'rdilar. Qorbobo chanasi bo'shamaguncha sovg'a ulashib, bayramona chiroqlar bilan bezatilgan shahar ko'chalarini aylanib yuraverdi. Yangi yil kirishi yakinlashib qolgandi, endi orqaga qaytishga tayyorgarlik ko'rish kerak. Birdaniga maydonda usti-boshi kir, juldur kiyim kiygan cholga ko'zi tushdi. Yaltiroq chana to'g'ri o'sha bechora cholning oldiga kelib to'xtadi. Chol joyida qotib qoldi, nima bo'layotganini tushuna olmasdi.

-Nimaga bayram dasturxonini atrofida emassan, yolg'iz bir o'zing ko'chada yuribsan? - so'radi Qorbobo.

-Nima, mening ustimdan kulyapsanmi? Qanaqa dasturxon? Mening na uyim, na oilam bor. Men darbadarman.

-Darbadarlar shunaqa bo'lar ekan-da!- xitob qildi Qorbobo, - demak, do'konda meni sen bilan adashtirgan ekanlar-da! Yangi yilga senga nima sovg'a qilay, aziz darbadarim?

- Issiqqina xot-dog bo'lsaydi hozir.

-Bo'пти, sen xohlagan narsangni olasan, bayramni nishonlab bo'lganingdan keyin, parkga bor, qorovulni topib unga, meni Qorbobo jo'natdi, deb ayt. Qorovul senga g'amxo'rlik qiladi, faqat sen uning hamma aytganlarini bajarishing kerak.

Qorbobo qarsak chalgandi, darbadar cholning oldida issiq xot-dog, choy va mandarin tuzalgan dasturxon paydo bo'ldi. Chol dasturxondagi noz-ne'matlarga shunchalik berilib ketdiki, osmonga chana qanday ko'tarilganini hatto sezmay qoldi. Oxirgi uvoqni yeb bo'lishi bilanoq, dasturxon ham g'oyib bo'ldi.

-Tush ko'rdim, shekilli,- kulimsiradi chol,-xuddi o'ngimda yuz berayotganday, eng asosiysi, ochlikdan qornim guldirashi qoldi, qornim to'ydi. Ie, yana nima dedi anovi g'alati soqoli bor chol? Parkga bor, qandaydir qorovulni top, deb aytdimi? Xo'p, shunday ham qildim, deylik, bordim, topdim. Keyin men unga nima deyman? Qorbobo meni sening oldingga jo'natdi, deymanmi?! Tabiiyki, meni jinniga chiqarishadi. Yo'q, chol, meni nog'orangga o'ynatolmaysan. Hyech qanday Qorbobo bo'lmagan va hozir ham yo'q. Men buni bolaligimdan bilaman, hatto ota-onam menga Yangi yil oldidan Qorbobo haqida ajoyib ertaklar o'qib berishgan bo'lsa ham. Ota-onam archa tagiga sovg'alarni yashirib qo'yishardi-da, bu sovg'alarni Qorbobo olib keldi, deb o'zlaricha to'qishardi.

Yo'l harakati nazoratchisi bayram kechasi navbatchilik qilayotgan edi, xizmatdoshlar bir-birlarini kirib kelayotgan Yangi yil bilan tabriklashar edi.

-Bu safar Qorbobodan ajoyib sovg'alar oldik,- deb bir-birlariga maqtanishardi.

-Qorbobo sovg'alarini shaharga olib kirayotganda, uni ko'rgan edim. Men xijolatdaman, chunki undan sovg'alarning hujjatlarini talab qildim.

Xizmatdoshlar taajjub bilan bir-birlariga karashdi, keyin kulimsirab savol berishdi:

-Qorboboni ko'rdim deysanmi? U qanaqa ekan? Bolalar kitobida chizilgandaymi? Balki ish vaqtida uxlab kolib, tushingda ko'rgandirsan?

Yo'l harakati nazoratchisi Qorbobo haqida so'zlab, uni qanday uchratgani haqida aytganiga afsuslandi. Xizmatdoshlari ochikchasiga uning ustidan kulishdi, u esa yerga kirib ketguday xijolatda edi. Birdaniga hammani hayron qoldirib, ularning ustidan juda katta tezlikda yaltirab nur sochayotgan nimadir

osmondan uchib keldi. O'sha "nimadir" yo'l harakati nazoratchisi yonida to'xtadi. Chana yaltiraydi, oldinda bir juft oppoq otlar. Chanani boshqarayotgan Qorbobo esa qo'llarini tanish do'stiga uzatib :

-Salom do'stim, qalaysan? - dedi.

-Salom, Qorbobo, hammasi joyida,- xursand bo'lib javob berdi nazoratchi.- Aravangiz qaerda qoldi?

-Shaharda. Qor erigandan keyin, parkning qorovuli aravani kerakli joyga olib boradi, lekin sen uni to'smagin, iltimos.

-Va'da beraman, to'xtatmayman. Bu safar eng zo'r sovg'ani kim olganini bilsam bo'ladingmi?

-Ha bo'ladi, bir bebosh bola oldi.

-Unga nima sovg'a qilding?

-Sog'lom yurak, rahmdillik va oliyjanoblik sovg'a qildim,- javob berdi Qorbobo.

Yaltiroq chana yerdan ko'tarildi-da, yo'l harakati nazoratchisi ustida bir marta aylanib, uchib ketdi. Kelgusi Yangi yilgacha xayr!

### **O'rmondagi qurbaqa va qo'ziqorin to'la savatcha**

Karima ostonada ko'z yoshlarini arang tutib, uyining qo'ng'irog'ini bosdi. Eshikni buvisi ochdi, nabirasining avzoyini ko'rib so'radi:

-Nima bo'ldi senga, qizalog'im? Qo'ng'iroqni to'xtovsiz bosyapsan!

Karima sumkasini uyning koridoriga uloqtirdi, tufisini koridorning narigi chekkasiga irg'itib, oshxonaga yugurib kirdi. Stulga o'tirdi, qo'llarini yuziga bosib, yig'lab yubordi. Buvisi shosha-pisha nevarasidan so'radi:

- Karima, tushuntirsang-chi, nima bo'ldi?

Karima yig'laganicha yuz bergan voqyeani aytib berdi:

-Bugun sinfda bolalar Lazizga tegajoqlik kilishgan edi, men uni himoya qildim. Sinfdoshlarimning aytishicha, men o'zimni muhim deb hisoblar ekanman, o'qituvchilar oldida o'zimni ko'rsatar ekanman. Yana Lazizni sevib qolgan emishman, shuning uchun o'zimga aloqador bo'lmagan ishga aralashar ekanman.

Karima yana ho'ngrab yubordi. Buvisi isitgichda quymoq isitib, xolodilnikdan olcha murabbosini oldi.

-Ma, yeb olgin. Darrov xafagarchiliging o'tib ketadi.

- yemayman! Hyech narsa xohlamayman! – deb qaysarlik qildi Karima.

Buvisi Karimaning ko'z yoshlarini artib, nevarasiga issiq choy quyib berdi. Karima beshta quymoq yedi, choy ichdi. Keyin yana:

-Hyech narsa yeyishni xohlamayman! – deb qovog'ini soldi.

-Bilasanmi, bu xatti-harakating menga bir qurbaqa haqidagi voqyeani eslatyapti.

-Qurbaqa?-hayron bo'lib, buvisiga jiddiy qaradi Karima.

-Ha, qurbaqa. Bir safar bobong o'rmonga qo'ziqorin terishga borgan edi. O'zi bilan kattakon savatni oldi. Bobongning qo'lidagi savatni o'rmondagi qurbaqa ko'rib qolibdi-yu vaqillab, butun o'rmonga jar solibdi:

- Eshitmadim demanglar, anovi odam bizning oldimizga chivinlarni ovlagani kelibdi! Axir, bu savatchaga qancha chivin sig'adi! Ehtiyot bo'linglar, ey o'rmon aholisi! To'yib olinglar, aks holda ochlikdan o'lamiz!

Qurbaqa esa tez-tez u yoqdan-bu yoqqa sakrab, iloji boricha ko'proq chivin yutishga harakat qilibdi.

-Buvijon, yana ertaklaringizni boshladingizmi! Meniki qurbaqanikidan jiddiyroq! - dedi Karima jahl bilan.

-Men ham jiddiy ish haqida gapiryapman-da, - javob berdi buvisi. - Bilasanmi, o'rmonda qanaqa to's-to'polon boshlanibdi? Olmaxonlar qarag'ay g'uddasini to'plashga tushibdi, tipratikonlar esa qo'ziqorinlarni uychariga yashirishibdi, qushlar chuvalchaglarni qazib olibdi.

-Tabiiyki, hamma o'zining tashvishi bilan band bo'lgan, - dedi Karima.

-Xuddi shunday. Bobong tergan qo'ziqorinlarni savatga joylayotganda, qurbaqa hayron bo'lib, og'zi lang ochilib qolibdi. Hatto uning og'zidan bir necha chivinlar qochib qutilibdi. Faqatgina chivin ovlagani o'rmonga borilmasligini qurbaqa hali tushunmas ekan-da. Unda nimaga savatcha kerak?

-O'rmonga odamlar faqat qarag'ay g'uddasi terгани bormasligini olmaxonlar ham tushunmagan ekan, - davom etdi Karima. - Qushlar ham chuvalchang tashvishida, tipratikon esa o'zining qorni qayg'usida.... Judayam kulgili!

-Agar bobong uyda jim o'tirganda, o'rmonda ham to's-to'polon bo'lmagan bo'lardi. Yoki u kattakon savat olib o'rmonga borishi kerak edi! Tushundingmi?

-Yo'q, tushunmadim, - deb to'g'risini aytdi Karima.

Buvisi yelkasini qisdi:

-Agar inson biron nojo'ya ish qilib qo'ymasa, u haqda hych kim biron nojo'ya gap gapirmaydi. Joyidan sal qo'zg'aldimi, albatta, u haqda gap-so'zlar boshlanadi. Hammaning o'z fikri bor, e'tibor bergan bo'lsang, odam iste'mol qilgan narsanigina yoqtirgani singari, har kimning o'z fikri bo'ladi. Kimningdir hayoti mazmuni pul bo'lsa, hamma pul uchun o'lib-tirilib ishlayapti, deb o'ylaydi. Agar kimdir shuhrat qozonmoqchi bo'lsa, hamma shuhrat qozonishni xohlaydi, deb fikrlaydi. Kimdir xizmat qilib, obro' qozonmoqchi bo'ladi. Hamma odamlar ham biror ishni pul uchun qilmayotganlarini yoki shuhrat qozonish uchun qilmasliklarini o'sha toifadagi odamlar tushunmaydi, umuman shunga o'xshagan gaplar... Yoki faqat sevib qolgani uchungina kimningdir yonini olmayotganini tushunib yetmaydi.

Karima hamon hiqillardi:

-Qanday qilib bundan himoyalaniş kerak? - dedi.

-Hyeç qanday, - osoyishta javob berdi buvisi, - bunaqa vaziyatdan himoyalaniş vositalari yo‘q. Lekin boshqalarni hukm qilmaslikning yo‘li bor, bu judayam oddiy.

Karimaning ko‘z yoshlari to‘xtadi, umiddan ko‘zlari chaqnadi.

-Bilasanmi, Iso Masih O‘zi haqida nima degan? - so‘radi buvisi.- U aytgan ediki, Mening ovqatim - Osmondagi Otamning xohish-irodasini bajarishdir. Aynan Iso Masih odamlarga yorug‘ yuz bilan qarardi, odamlarga faqat yaxshilikni ravo ko‘rardi, hamma bilan har xil mavzuda bemalol gaplashardi. Ayolu erkaklarni, boyu kambag‘allarni, xo‘jayin va qullarni birday ko‘rardi. Agar sen bilan bizning ovqatimiz - Xudoning xohish-irodasi bo‘lsa, unda biz insonlarning xatti-harakati va bajarayotgan ishlarini pok nigoh bilan ko‘ramiz. Odamlar bilan munosabatga kirishuv oson bo‘ladi. Muqaddas Kitobda aytilganiday, kimning ko‘zi yorug‘ bo‘lsa, u uchun hamma narsa pokdir.

Karima stoldan turdi-da, buvisini qattiq quchoqlab, o‘pdi:

-Siz mening aqlligimsiz, buvijon!

-Qizalog‘im, aqlli men emas, balki Mukaddas Kitob aqlli. Men bu Kitobni anchadan beri o‘qiyman.

### **Dada, futbol va matematikadan uy ishi**

Sotimjon har doimgiday uy vazifalarini bajarib o‘tirar ekan, tezroq tugatishga shoshilardi. Rus tilidan mashqni daftarga ko‘chirdi, matndagi gap bo‘laklarini aniqlash qiyin bo‘lmadi. Sotimjon bu vazifani bajarib, matematikani oldi. Bir necha tenglamalarni bajardi, faqat masalani yechish qoldi, xolos. Masala oddiy emas. Sotimjon masalani bir necha bor o‘qib chiqib, tushundiki, buni yolg‘iz o‘zi bajara olmaydi. U daftarni yopdi-da, televizorni yoqdi. Xonaga dadasi kirib keldi:

- Sen bilan futbol ko‘rsam maylimi? – deb so‘radi. - Hozir o‘yin boshlanadi.

- Albatta! Ikkovimiz ko‘rsak qiziqarliroq bo‘ladi,- xursand bo‘lib javob berdi Sotimjon.

- Uy vazifalaringni qilib bo‘ldingmi?- qiziqib so‘radi dadasi o‘g‘lining yoniga, divanga o‘rnashib o‘tirarkan.

- Asosiylarini qilib bo‘ldim.

- Qaysi biri qoldi?- so‘radi dadasi.

- Matematikadan masala. Uni hyeç tushuna olmayapman. Qo‘rqinchli joyi yo‘q. Bitta masala bajarilmagan bo‘lsa, o‘qituvchimiz to‘rt baho qo‘yadi.

- Sen yengil yo‘ldan bormagin, o‘g‘lim. Kani o‘sha masalani ko‘raylik-chi. Agar besh baho olish ilojisi bo‘lsa, unda to‘rt baho nimaga kerak bizga?!

- Dada, hozir o'yin boshlanadi,- deb eslatdi Sotimjon.

- Hyech bo'lmasa shartini o'qib chiqib, o'ylab ko'raylik, o'yindan so'ng bajaramiz.

Sotimjon daftar - kitobini olib keldi. U masalaning shartini o'qishga astoydil kirishib ketdi. O'yin boshlandi, dada va o'g'il e'tiborlarini televizor ekraniga qaratdilar. Hujum vaziyati paydo bo'lganda, dadasi mohir sharhlovchiday tanbeh berdi. Qarshi hujumchilarning usullarini bila olmagan o'yinchilarni, mustaqil qaror qabul qila olmagan o'yinchini, o'yinchilarning ustalik bilan to'p uzata olmasliklarini tanqid qilib o'tirdi.

- Kallang bilan o'y-lamasang, darvozungga to'p kiradi! - deya dadasining jahli chiqdi.

O'yin tugadi. Sotimjon daftar va matematika kitobini olib, dadasiga:

- O'zim masalani yechishga harakat qilaman, - dedi.

Sotimjon masalani qayta- qayta o'qib chiqdi, oxiri, masalaning yechimi qanday ekani haqida bir qarorga keldi. U har xil usullarni qo'llab, to'g'ri javobni topdi, so'ngra xotirjam bo'lib daftar-kitobini sumkasiga solib qo'ydi. Dadasi eshikdan mo'ralab, so'radi:

- Nima bo'ldi, yordam kerakmi?

- Yo'q, o'zim uddaladim.

- Qoyilman! Bilasanmi, hayotda qiyin masalalar bilan hali ko'p to'qnashasan. Orqaga chekinsang, bu bora-bora odatga aylanib qoladi. Yomon odatga.

- Dada, to'g'risini aytsam, men ham o'zimga qoyil qolyapman. Menga to'g'ri yo'lni ko'rsatganingiz uchun sizga rahmat.

- Bir vaqtlar men ham shu minnatdorchiliklarni Xudoga aytganman, o'g'lim, - dedi dadasi.

- Rostdanmi? Bu qachon bo'lgan?

- Men o'z aqlim va qalbim ko'rsatgan yo'ldan yurishimga Xudo yo'l qo'ymagan paytda,- dedi dadasi.

## Oq yo'l!

Dovyurak dengizchilar jamoasi Abadiy sevgi nomli mamlakatga o'tlanishdi. Ko'pchilik o'sha mamlakatga borishni orzu qilardi. Orzumand odamlar o'sha mamlakat haqida ko'proq bilishga harakat qilishardi. Ba'zi odamlar o'sha mamlakat haqida shunday hikoya qilib berardilarki, ilgari xuddi u yerda bo'lganday. Oppoq kemada "Barkamollik" degan yozuv bor bayroq hilpirab turibdi.

Kemada suzishga tayyorgarlik ko'rganlar kimlar ekan? Ular qanday dovyurak odamlar ekanki, hatto noma'lum bepoyon okean ham ularni to'xtata

olmasa? Ular Shahanshoh ruhoniylari, muqaddas xalq, Xudo tanlab olgan xalq! Ular shoh, mamlakat hukmdori tomonidan abadiy hayotga da'vat qilingan, u yerda hamma orzulari va umidlari bajo bo'ladi.

Kemaning ostki qismiga chirimaydigan boyliklar: sevgi, xotirjamlik, muloyimlik, xayrixohlik, lutfkorlik, muhabbat, sadoqat, sabr-toqat mustahkam qilib joylashtirilgan. Mana shu boyliklarni o'g'irlash uchun kemaga qaroqchilar hujum qilish xavfi bor.

Kichkina orolcha qaroqchilarning boshpanasi bo'lib, tik qoya ortida kemalarini yashirib qo'yishgan. Dengiz qaroqchilari o'zaro maslahat qildilar:

-Biz ular orasidan soddadil, yumshoq ko'ngil dengizchilarni ajratib, o'zimizga og'dirib olamiz!-xirillagan ovozda gapirdi bosh qaroqchi. Buning ustiga, u tinimsiz yo'talar, bundan esa safdoshlarining jahli chiqardi. Qaroqchilar hammani yomon ko'radi, hatto bir-birlarini ham ko'rgani ko'zlari yo'q.

- Qirg'oqda men "Barkamollik" kemasi dengizchilarini uchratdim. Men ularga: "Ishonchli boyliklaringizning bir qismini bizga o'z xohishlaringiz bilan bersalaringiz, ularning evaziga sizlarga pul, qimmatbaho toshlar, shon-shuhrat, uylar beramiz", deb taklif qildim. Ammo birontasi ham rozi bo'lmadi. Bunday xayolparastlarni faqat kuch bilan bo'ysundirishimiz mumkin, xolos,- davom etdi bosh qaroqchi.

Bir ko'zli qaroqchi so'z boshladi:

-Men faqat ularning sevgisini qo'lga kiritmoqchiman. Qolganlari – muloyimlik, xayrixohlik, lutfkorlik, muhabbat, sabr-toqat menga kerak emas. Men sevgini qo'lga kiritish uchungina jang qilaman.

Qaroqchilar uni mazax qilib, ustidan kulishdi, bir-birlariga gap bermasdilar, g'ala-g'ovur avjiga chiqdi.

-Go'yo hych kimga sevgidan boshqa hych narsa kerak emasday.

- Beozorlik! - deb qaroqchilar o'zlarini to'xtatolmay kuldilar. Nihoyat:

- Yoki rahm-shafqatmi? Kelinglar, ana shu boyliklar uchun kurashamiz! Kimga nima nasib kilarkan, ko'raylik-chi?

Bosh qaroqchi xursand bo'lib, buyruq berdi:

-Hamma joy-joyiga! "Barkamollik" qirg'oqdan uzoklashdi. Jangga tayyorlaning!

Qaroqchilar kemasining qora yelkani ko'tarildi, kema dengiz ichkarisiga suzib ketdi. "Barkamollik" kemasining kapitani qora yelkanli kemani ko'rib, jamoasiga buyruq berdi:

-Qaroqchilar bizga hujum qilishga tayyorgarlik ko'rishyapti! Dadil bo'linglar! Umidsizlikka tushmanglar! Eng muhimi, sevgini asrang!

Qaroqchilar kemasi "Barkamollik"ga yaqinlashdi. Bosh qaroqchi xirillagan ovozda baqirdi:

-Menga sevgingizni berishni talab qilaman!

"Barkamollik"ning kapitani bir soniya ham o'ylab o'tirmay javob berdi:

-Agarda sizlar bizdan sevgi bag'ishlaydigan so'zlarni so'raganingizda edi,



bergan bo'lardim. Agar sevgiga olib boradigan yo'lda sizlarni qo'llab-quvatlashimni so'raganingizda, buni bajarardim. Lekin sizlar o'zingiz uchun tanlagan hayotda sevgi bilan yashashingizning imkoni yo'q.

Qaroqchilar bir-biriga so'z bermay, po'pisa qilishga o'tdilar:

-Bu nima degan gap! U bizga va'z aytmoqchi bo'lyapti.... Olg'a!

Hushtaklar chalindi, zambaraklar gumbirladi. Qaroqchilar kemasidan uchgan o'qlar – hasad, janjalkashlik, shafqatsizlik, ziddiyat, takabburlik juda xavfli edi. Bunday zarbaga uchragan "Barkamollik" dengizchilari o'zlaridagi sevgini arang saqlab turishardi. Zaharli o'qlar bilan yaralangan yuraklarni sevgi tark eta boshladi. Shunda botirlar kapitani buyruq berdi:

-Dadil bo'linglar, dadillikni aslo susaytirmanglar! Dushmanga astoydil qarshi turinglar, shunda u sizlardan qochadi!

Bitta dengizchi qo'rqib, baqirdi:

-Kemamizning qoplamalari yorilib ketdi!

Shu payt o'rtoqlari birin-ketin shang'illay boshladilar:

-Zarur vaqtda kimdir o'z joyida bo'lmagani uchun shu ko'rgulik boshimizga tushgan-da!

-Senga nima, kim qaysi joyda bo'lishi kerakligini nazorat kilish senga topshirilganmidi?!

-Hey, o'zingning joyingni bil, ishingni bilib qilaversang-chi!

-Sen o'zingga qara, ta'limotingga e'tibor ber, boshqalarga o'rgatma...

Kapitan do'q-po'pisaga o'tdi:

-Bahslashishni bas qiling! Janjalni to'xtating!

-Kapitan, kemanding tomi yonyapti! - baqirdi boshqasi vahima bilan.

Kapitan baqirdi:

-Bu hasadgo'ylarning ishi! Qaranglar, olov kemanding boshqa joylarini ham egallab olmasin! To'xtashimizga to'g'ri keladi, olovni o'chirishimiz kerak, aks holda hammamiz halok bo'lamiz!

Kema to'xtadi. Dengizchilar olovni o'chirish uchun astoydil kurashdilar.

Bu paytda qaroqchilar kemasida shunday suhbat ketayotgan edi:

-Biz hujum qilayotgan kemani tajribali kapitan boshqaryapti,- dedi bosh qaroqchi. - Ko'rinib turibdi: u sayohat oldidan Muqaddas Kitobni yaxshilab, sinchiklab o'qigan. Bilasizlar, bu kitob donolik beradi. Ular kitobda yozilganlarni bajo keltirishlari uchun "Barkamollik" kemasi borayotgan mamlakat shohi ularga kuch ato qilar ekan. Buyrug'imga quloq solib, itoat eting: bor kuchingiz bilan asosiy etiborni kapitanga karating, zarbani unga yo'naltiring!

Shu payt qaroqchilar kemasidan navbatdagi to'p otildi, to'p kemaga emas, osmonga karatib otildi. Bu ko'zni kamashtiradigan mushak ekan.

"Barkamollik"ning dengizchilari boshlarini ko'tarib, tepalarida har xil rangdagi olovga mahliyo bo'lib qolishdi. Yana kapitanning buyrug'i yangradi:

- Chalg'imanglar! Ularning yomonligiga ham, yaxshiligiga xam munosabat bildirmanglar!

Uning buyrug‘i asta-sekin yaqinlashib kelayotgan qaroqchilar kemasiga qarshilik ko‘rsatishga chaqiriq edi. Shu payt kemanding yonboshiga katta nayza kelib sanchildi. Dengizchilar esa xatarni sezmagandek, ahmoqona norozilik bilan to‘ng‘illashdi:

-Bizning kapitanimiz adolatsiz odam, hatto mushakbozlikni tomosha qilishimizga ham bizga ruxsat bermayapti! Nahot u jang borayotganda bizni ruhlantirishi kerakligini tushunmasa? Bizning sevinchimiz esa qaergadir g‘oyib bo‘ldi....

Kapitan buyruq berdi:

-Nolimanglar, tushkunlikka tushmanglar! Umidsizlikka, shubha-gumonlarga o‘rin qoldirmanglar!

Buyruq beraman: sevininglar! Yana bir bor sevininglar!

Kapitan shunday dedi-yu kemanding tepasiga yugurdi, chunki "Barkamollik" arqonlariga qaroqchilar osilib chiqib olishgan edi. U boltani oldida, arqonni qirqib tashlamoqchi bo‘ldi, lekin uning urinishlari natija bermadi. Arqon juda yo‘g‘on edi, qaroqchilar esa dovyurak kapitanning chiranib urinishlarini mazax qilishayotgan edi.

"Barkamollik" kemasi dengizchilari qaroqchilarning mazaxlarini eshitib, darrov o‘zlariga keldi va kapitaniga yordamga shoshilishdi. Ko‘pchilikning xatti-harakati bilan arqon qirqib tashlandi, qaroqchilar okeanga qulab tushdilar.

-Ura-a-a! G‘alaba! - hayqirdi kapitan. - Olg‘a!

Kemanding hamma yelkanlari ko‘tarildi, tez orada ular qaroqchilar kemasidan uzoqlashib ketdi. "Barkamollik"chilar tantana kildi, jamoa qattiq jangga bardosh bera oldi. Sevgi esa yana dengizchilar qalbidan joy oldi. Ammo charchoq bilina boshladi. Kutilmaganda, okean ustini quyuq tuman qopladi. Butun kema ichini ham tuman qamrab oldi. Nimagadir dengizchilar mudrab, uykuga ketdi. Bunday vaziyatda olg‘a harakat qilish xavfli. "Barkamollik" turgan joyida to‘xtab qoldi. Dengizchilar esa turgan yerlarida oyoqlari chalishib yiqilib qoldilar. Hatto kapitan ham chalqancha ag‘darilib, darrov uxlab qoldi. Ammo qaroqchilar mutlaqo sergak edilar. Ular mash'al yoqib, paypaslanib, "Barkamollik" kemasiga yaqinlashib kelishdi. Bosh qaroqchi xirildoq ovozi bilan to‘dasiga murojaat kildi:

-Biz birinchi jangda mag‘lubiyatga uhradik, endi ular g‘alaba qilishlariga yo‘l qo‘ymaymiz!

Yana kemanding pastki qismiga katta nayza kelib sanchildi. Bu safar arqonni qirqib tashlaydigan biron zot yo‘q. Dengizchilar ham, kapitan ham qattiq uyqungan ketgan.

Qaroqchilarni kemani egallab olishlariga, shirin tushlar ko‘rayotgan asirlarni qamoqqa tashlashga hych kim va hych narsa narsa to‘sqinlik qilmadi. Shundan keyin ashaddiy bosqinchilik, talon-taroj boshlandi. Qaroqchilar xazina eshigini buzib, qo‘lga kiritgan narsalarni talasha boshladi:

-Menga sevgidan ko‘proq!

-Yo‘q, ko‘prog‘i menga!

-Mana shu sevgi uchun hammadan ko'p men tavakkal qildim!

-Yo'q, men! Axir o'lishimga sal qoldi-ku!

Ular bir-birlariga g'azabini sochar, hamma o'zini o'ylardi, so'ng o'rtada qattiq nizo chiqdi.

Shu vaqtda tuman tarqadi, dengizchilar uyg'onib, uyqulari ochilgandan keyin qarasalarki, hammalarining oyoq-qo'llari bog'langan, kemanding yerto'lasidagi qamoqda yotibdilar. Ularning qalbida endi sevinch yo'q. Qaroqchilar ularni mag'lub qilib, bor mol-mulklarini talon-taroj qilibdilar. Endi ular umidsizlik botqog'iga botib qoldilar. Ular navbatdagi zarbadan va mag'lubiyatdan keyin toliqishni his qildilar. Shu payt bosh qaroqchi yerto'laga tushib keldi:

-Sen hamma narsangdan mahrum bo'lding!- deb "Barkamollik" kapitaniga murojaat qildi.- Sening umidsizlikdan boshqa hych vaqoing kolmadi. Lekin men sen o'ylaganday yomon odam emasman. Bunday ayanchli ahvoldingdan chiqish yo'lini senga aytishim mumkin: Jamoangni ergashtirib, kemangda Ishonchsizlik shahriga bor. Sevgini va najotni qidirib o'sha yerdan chiqqan eding-ku! Endi o'sha yerga qayt. U yaxshi shahar, bu shahar haqida odamlar nimalar deyishmasin, sen u yerda xotirjam yashaysan. Ilgari o'zing rad etgan o'yin-kulgulardan lazzatlanishing mumkin. Sen oltinning haqiqiy qadrini o'sha yerda bilasan, sevgi o'rniga qancha narsalarga ega bo'lishing mumkin-ku! Sen haqiqatni keyin anglab yetasan. Rohat-farog'atda yashashing uchun oltinning o'zi kifoya. Muhabbat, xayrixohlik, sevgi va.....yana allanarsalar - bularing umuman kerak emas.

Kapitan oxirgi kuchini jamlab, jasorat bilan dedi:

-Hych qachon sen istaganday bo'lmaydi! Agarda men hayotda bundan keyin hych qachon sevinmaslikka mahkum bo'lsam ham, Ishonchsizlik shahriga qaytib bormayman!

Qaroqchi xoxolab kulib yubordi:

-Albatta, endi sen sevgisiz hayot kechirasan, sen bir umrga sevgidan mahrum bo'lgansan, sevgi bizning o'ljamizga aylandi. Qo'l ostingdagi odamlarga nima va'da qilgan eding, eslab ko'r! Abadiy sevgi mamlakati va najotni va'da qilgan edingmi? Endi qara ularga! Qara, qara, ularni qaerga olib kelding! Ular o'ladilar, sen ham o'lasan, hammangiz o'lasizlar! Jamoangdan birontasi ham tirik qolmaydi!

Shu payt oyoq-qo'llari bog'langan dengizchilardan birining ovozi eshitildi:

-Kapitan, o'lim oldidan senga aytmoqchimiz: sen bilan sayohatga chiqqanimizdan sira ham afsuslanmaymiz. Hayotimizning haqiqiy ma'nosini shu yerda topdik. Biz egalik qilgan chirimas xazina nima ekanligini endi anglab yetdik.

Shu vaqt qamoqxonada eshigidan paxmoq kalla ko'rinib dedi:

-Hoy boshliq, yuqorida allaqanday yorug'lik paydo bo'ldi, dengizda esa to'lqin ko'tarildi.

Bosh qaroqchi hamma narsani unutib, kemaning tepasiga o'qday otilib chiqib ketdi. U yerda haqiqatdan ham anglab bo'lmaydigan hodisalar sodir bo'layotgan edi. Ko'zni qamashtiradigan nur atrofni shunday yoritardiki, hatto qaroqchilarning har bir tola soqoli aniq ko'rinib turardi. Yorug'lik qirg'oqdagi mayoqdan kelayotgan xabar edi. Tuman tufayli avval ko'rinmagan qirg'oq bu joydan unchalik ham uzoq emas ekan. Bosib olingan kema tomonga kemalar suzib kelardi. Bu kemalarning yelkanlarida "Sevgi uchun, rahm-shafqat uchun, najot uchun!" degan yozuvlar bor edi. Ular asirga tushgan "Barkamollik" kemasiga yordam berish uchun shoshilayotgan edi. Qaroqchilar qurshovda qolganlarini anglab yetdilar. Endi ular dod-voy solib baqira boshladilar:

-Biz sizlarning do'stlaringizimiz! Biz bu yerda mehmonimiz!

"Barkamollik" kemasining kapitani kemasi bortiga bizni o'zi chaqirdi!

-Kapitanning o'zi aytsin!- javob berdi hujumchilar.

Qamoqdan kapitanni olib chiqishayotganda, uning qo'l-oyoqlaridan arqonni yechib tashlashdi.

-Biz - sening do'stlaringimiz, shunday deb ayt ularga, - asirning qulog'iga pichirladi bosh qaroqchi uning orqasiga pichoq tirab.- Gapir, bo'lmasa bu oxirgi gaping bo'lishi mumkin.

"Barkamollik" kapitani ko'zlarini osmonga tikdi-da, chuqur nafas olib, qattiq baqirdi:

-Bu bo'hton!

Qutqaruvchilar bir zumda narvonlarni "Barkamollik" kemasi bortiga tashlab, ko'priq hosil qilishdi.

-Kelinglar, shungayam janjal qilmaylik!- vaziyatdan chiqish uchun oxirgi imkoniyatni ishga soldi bosh qaroqchi pichog'ini asirga tiqishga jur'ati qilolmay.- Sizlar axir tinchlikparvar, mehribon odamlarsiz. Sizlarda nima deb aytilardi: "Tinchlik o'rnatuvchilar baxtiyordirlar" debmi? Bizga ishonishlaringiz kerak, axir, sizlar imoningiz uchun kurashyapsiz, biz ham imon tarafdamiz!

-Ularga ishonmanglar!- deb baqirdi kapitan.- Mayli, o'lsam o'lay, lekin sizlar bularning yolg'onlariga va bo'htonlariga ishonmanglar!

Qutqaruvchilar yordam berish uchun "Barkamollik" kemasiga tushib bo'lgan edilar. Qaroqchilar bo'linib, tumtaraqay bo'lib ketdilar, Bosh qaroqchi esa tiz cho'kib, rahm-shafqat so'rab yolvordi. Bu paytda qamoqxonadagi asirlar ozod etilib, kema bortiga chiqib keldilar.

- Salom "Barkamollik" kemasining jasur jamoasi – kema kapitani va dovyurak dengizchilar!- deya ozod etilganlarga murojaat qildi qutqaruvchilar. - Mamlakatimizning shohi abadiy sevgi falokatga uchraganini bilib, bizni yordamga yubordi. Sizlar boradigan manzilga ozgina masofa qoldi. Shohimiz sizlarni kutib olishga tayyor!

Kemalaringizni tartibga keltiring, o'z'laringiz ajoyib mamlakat shohi bilan uchrashishga tayyorgarlik ko'ring.

"Barkamollik" jamoasi va kapitan qaroqchilar sohib tashlagan, oyoq osti

qilgan boyliklarni yig‘a boshlashdi. Ular iflos bo‘lib ketgan kema palubasidan muloyimlikni topib, tikka qildilar, kemanding yana bir bo‘lmasidan xayrixohlik va lutfkorlikni topishdi. Kemanding eng tepasiga muhabbat, sabr-toqat va marhamat osilgan ekanlar – uchalovi osilganicha suhbatlashib turishibdi.

Birgina sevgidan tashqari, har yoqqa sochilib ketgan hamma narsalarni topishdi. Kapitan atrofni diqqat bilan izlab chiqdi, lekin sevgini topa olmadi. Shundan keyin u butun kemani tozalashni va tartibga keltirishni buyurdi.

Hamma ishlarni bajarib bo‘lishganda, jamoa butunlay holdan toyib qolgan edi. Tinkasi qurigan dengizchilar va ularning kapitani kemada o‘tirisharkan, ajoyib mamlakatning shohi bilan uchrashishlarini ko‘z oldiga keltirishardi. Birdaniga ular o‘zlarining yuragiga ohista, sezdirmasdan sevgi kirganini sezib qolishdi. Ularning yuzlarida tabassum paydo bo‘ldi. Ular buyuk uchrashuvga, Abadiy sevgining shohi bilan yuzma-yuz uchrashuvga tayyor ekanliklarini bilardilar.

## **Sakkizoyoq**

Qadim o‘tgan zamonda ahmoq Sakkizoyoq yashagan ekan. U katta akvariumda yashar, yonidan o‘tib ketayotgan odamlarni ko‘rib turar ekan. Har bir odamning ikkita qo‘li va ikkita oyog‘i bor bo‘lib, ikkitasi bilan yurishar, kolgan ikkitasi bilan esa Sakkizoyoqni ko‘rganlarida silkitisharkan. Odamlar akvarium oldida to‘xtab, Sakkizoyoqni barmoqlari bilan ko‘rsatib kulisharkan. Sakkizoyoqqa bu alam qilar ekan. “Odamlar o‘zlarinikiday to‘rtta emas, sakkizta oyog‘im borligi uchun kulishyapti”, deb o‘ylarkan Sakkizoyoq. Bechora Sakkizoyoq akvariumda yashaydigan kichkina to‘rtta "ortiqcha" oyoqlarini yashirib oladigan bo‘libdi, endi ikkitasi bilan yurishni, ikkitasini esa ko‘tarib, silkitib turishni mashq qila boshlabdi. "Endi hych kim mening oldimda kulmaydi, qo‘llari bilan meni ko‘rsatmaydi", deb o‘ylabdi Sakkizoyoq.

Xuddi Sakkizoyoq o‘ylaganday bo‘libdi. Odamlar unga e‘tibor bermay qo‘yishibdi. Hech kim akvarium oldida to‘xtamaydigan bo‘libdi, hych kim kulmas ekan.

Sakkizoyoq ahmoq ekan, to‘g‘rimi? Lekin akvarium xo‘jayini ahmoq emas ekan. U boshqa Sakkizoyoq sotib olib, akvariumga qo‘yibdi. Yangi Sakkizoyoq o‘zining yangi uyida xursand bo‘lib o‘ynar, akvarium bo‘ylab aylanib, suzib yuraveribdi.

Akvarium yonidan odamlar o‘tib ketayotganlarida, to‘xtab yangi Sakkizoyoqni tomosha qilishar, kulishar, qo‘llari bilan ko‘rsatisharkan. Ikki qo‘lli va ikki oyoqli Sakkizoyoq odamlarni ko‘rib, yashirgan oyoqlarini yozib yuboribdi, yana sakkiztasi bilan yura boshlabdi. Yangi Sakkizoyoqdan qolishmasligini ko‘rsatish uchun suza boshlabdi.

Shunda yangisi to‘xtab, debdi:

-Qanday chiroyli oyoqlaring bor-a!

-To‘g‘ri, sakkizalasi ham chiroyli,- xursand bo‘lib javob beribdi

Sakkizoyoq.

## Tovuq

Ona tovuq bolasiga – jo‘jaga o‘rgatayotgan edi:

-O‘zing yashaydigan bu ulkan dunyoda juda ko‘p narsalarni bilishing shart. Mana, qara, bu - don. U sen bilan men ovqatlanishimiz uchun kerak. Bu esa qo‘ng‘izlar, ular sen bilan bizning ozuqamiz har xil bo‘lishi uchun zarur.

Jo‘ja so‘radi:

-Oyi, anovi nima? Boshim tepasida turgan baland narsa bor-ku?.

Tovuq boshini ko‘tarib qaradi:

-Bu- qo‘ng‘iroqcha degan gul. Mayda hashorotlar uning tagida yashirilib olishlari uchun shu gul kerak, sen bilan men esa hashorotlarni shu yerdan topib yeymiz.

-Mana bunisi-chi? Hov balanddagi narsa? - to‘xtamasdan so‘rayverdi jo‘ja.

-U bulut,- sabr bilan javob berdi tovuq,- U yomg‘ir yog‘ishi uchun kerak. Yomg‘irdan so‘ng yer tagidan chuvalchanglar sudralib chiqadi. Ular sen bilan menga mazali yegulik bo‘ladi.

-Mana bu nima?- shosha-pisha so‘radi jo‘ja.

-Bu ko‘l,- beparvolik bilan gapirdi tovuq. - U hech kimga kerak emas, faqat xalaqit beradi, xolos.

-Agar kerak bo‘lmasa, nima uchun u bor?

-Bulutlar yomg‘irini quygandan keyin, ortiqcha suv bir yerga to‘planib, ko‘l hosil bo‘ladi. Boshqa hech narsaga kerak emas. Bo‘ldi-ye, savollaringdan bezor bo‘lib ketdim! - dedi tovuq.

Jo‘ja ko‘l tomon bordi. Qirg‘oqda katta o‘rdak bilan o‘rdakchani ko‘rdi. O‘rdak o‘rdakchaga o‘rgatayotgan edi:

-Mana bu chigirtka. U bizning ozuqamiz, shu uchun kerak. Bu esa qurbaqa. Bizning ozuqamiz har xil bo‘lishi uchun bu ham darkor.

-Oyijon, anovi nima? – ko‘lning qarshi tomonini ko‘rsatib so‘radi o‘rdakcha.

-U qo‘ng‘iroqcha,- beparvolik bilan javob berdi o‘rdak. - U hech kimga kerak emas, faqat xalaqit beradi.

-Bo‘lmasa nimaga u o‘sadi?- so‘radi o‘rdakcha.

-Menimcha, tasodifan paydo bo‘lgan, shekilli.

-Hov anovi-chi? Hov balanddagi narsa,- qiziqdi o‘rdakcha.

-U bulut,- aniq javob berdi o‘rdak.- Ular yomg‘ir yog‘ib, bizning ko‘limizni suv bilan to‘ldirish uchun kerak.

Jo'ja o'rdakning oldiga kelib, so'radi:

-Iltimos, ayting-chi, ko'l nima uchun kerak?

O'rdak javob berdi:

-Biz suzishimiz, undagi qo'ng'izlar, qurbaqa bilan oziqlanishimiz uchun kerak.

Jo'ja ona tovuq oldiga qaytib borib, unga dedi:

-Oyijon, ko'l o'rdaklarning suzishi uchun kerak ekan.

Tovuq o'ylab turib, dedi:

-Endi ko'l nimaga kerakligini bilib oldingmi? O'rdaklar ko'lda qo'ng'izlarni va qurbaqalarni qidirib topishlari uchun, bizning chuvalchanglarimizni va hashorotlarimizni yemaydilar.

Tovuq yana biroz o'ylanib, o'ziga-o'zi dedi:

-Shuning uchun o'rdakning tumshug'i xunuk, beo'xshov.

### **To'quvchi Aziza**

Shovqinli katta shaharda o'n yoshli qizcha yashar edi. Uning ismi Aziza bo'lib, to'qishni yaxshi ko'rar edi. U oddiy ilmoq bilan shunday ajoyib narsalar to'qir ediki, uni taniganlarning hammasi shunchaki Aziza deb emas, balki o'quvchi Aziza deb atashardi.

Aziza buvisining narsalar to'qishdan ortib kolgan iplaridan o'yinchoq yasardi. Hatto kichkina ipni ham uvol qilmasdan, biror narsa to'qirdi. Bir kuni

Aziza buvisi keraksiz deb tashlab yuborgan kalava ipni sabr bilan chigalini yechdi.

-Bu ip tashlandiq bo'lishni xohlamayapti,- dedi Aziza.

Nabirasini kuzatib turgan buvisi mehr bilan o'ziga o'zi:

-Nabiram juda mehnatkash bo'lib o'syapti-da, - dedi.

Kunduzi Aziza uyi oldidagi maydonchada o'ynab yurgan edi. Buvisi derazadan uni kuzatib turgan ekan. Qo'shni uydagi Po'lat degan bola maydonchada tez-tez sayr qilib turardi. U har doimo qo'lida cho'zma otari bilan qushlarni otgani kelardi. Aziza qushlarga rahm qilib, bu safar ularni himoya qilish uchun buvisini yordamga chaqirdi.

Buvisi bir zumda hovlida paydo bo'ldi, Po'latni maydondan haydab yubordi. Buvisi Po'latning qo'lidan cho'zma otarini olib qo'ymoqchi edi, lekin bundan nima naf deb o'yladi, chunki Po'lat boshqasini yasab olishi mumkin edi-da.

-Mana shunaqa-da,- deb xafa bo'ldi buvisi, - kimdir iste'dodi va hunarini oshiradi, kimdir mehnat qilib, yig'adi va saqlaydi, kimdir esa buzadi va vayron qiladi.

Po'lat hovlidan ketayotganda, har doimo Azizani mazax qiladi:

-To'quvchi! Qochib qolinglar, bo'lmasa, xammani ip qilib, to'qib yuboradi.

Bir kuni havo bulutli bo'lib, yomg'ir yog'ayotgandi. Po'lat maydonga keldi. Aziza yo'qligini ko'rib, qo'rqmay cho'zma otaridan qushlarga tosh ota boshladi. Qushlar yomg'irdan qochib, barglar orasiga yashirinib olgan edi.

Po'lat buta

orasidagi chumchuqning oldiga yaqinlashib, endigina tosh otaman, deb mo'ljalga olgan ham ediki, qulog'i yonida chiyillagan ovoz eshitildi. Uni chivin chaqayotgan ekan. Po'lat qo'li bilan chivirlarni haydadi. Ammo chivirlar darrovdanga keta qolmadi. To'polonchi Po'lat bor kuchi bilan chivirlarni haydamoqchi bo'lib, joyida turgancha xuddi urchuqqa o'xshab aylanaverdi, aylanaverdi. To'xtashning hych iloji bo'lmadi. U ipga aylanayotganini bilmasdi, ip esa katta kalavaga aylanayotgan edi. Bir tomondan, shamol, ikkinchi tomondan, yomg'ir... birpasda Po'lat-ip iflos yerda yotgan kalavaga o'xshab qoldi.

Yomg'irdan so'ng Aziza maydonga sayr qilgani chiqdi. U iflos yerda yotgan kalava ipni ko'rib, qo'rqmasdan uyiga olib ketdi. Buvisi qo'l siltadi, Aziza esa o'ziga yoqadigan so'zlarini aytdi:

-Bu iplar tashlandiq bo'lishini xohlamayapti.

Buvisi ipni bir necha bor siltab-qoqib tashladi. Ip qurigandan keyin Aziza chuvalangan iplarni birma-bir yecha boshladi.

Kalava ip bir xilda tekis emas ekan: bir joyi tekis, yumshoq bo'lsa, boshqa bir joyi tikonday sanchiladi, g'adir-budir, hych narsaga yaramaydi. Shu joylarini kesib, tashlab yuborishga to'g'ri keldi.

-Afsus, ko'p joyi uvol ketdi, - dedi xafa bo'lib Aziza, yaroqli iplar juda oz



chiqqanidan.

Buvisi esa unga tasalli berdi:

-Oz bo'lsa ham qolibdi-ku, demak, mehnating zoe ketmabdi.

Ertasi kuni Aziza nimadir to'qishni boshladi. Kechga borib chuvalangan ipdan kichkina odamcha tayyor bo'ldi.

-Aqlli qizalog'im!- deb maqtadi buvisi. - Juda ajoyib o'yinchoq chiqibdi! Birontasiga sovg'a qilasanmi?

-Buni o'zimga olib qolaman,- javob berdi Aziza.

Yozuv stoli ustida turgan stol chirog'i yoniga to'qilgan odamchani qo'yib, o'zi uxlagani ketdi.

Ipdan to'qilgan Po'lat chiroq tagida achchiq-achchiq yig'ladi. Uning yig'isini hatto kitob javonida uxlab yotgan ipdan to'qilgan kuchuk ham eshitdi. U javondan stolga sakrab tushdi va Po'latning yoniga yugurib keldi:

-Vov-vov!

Po'lat kuchukni silab, undan so'radi:

-Endi men nima qilaman?

Kuchukcha xursand, mehribonlarcha dumlarini likillatib, Po'latning oyoqlariga suykaldi. Xona tinch, sukunat hukm suryapti.

Elektron soat 02:35 ni ko'rsatdi. Kutilmaganda raqamlar o'rniga harflar ko'rina boshladi. Po'lat o'qiy boshladi:

-"Qachonki bezovtalangan chumchuq seni kechirsa, qachonki qushcha yana xursand bo'lib, tashvishlanmasa, shundagina yana odamga aylanasan."

Po'lat qo'rqib, baqirib yubordi:

-Men chumchuqni qaerdan qidiraman? Uni qaerdan izlayman? Nahotki bir umr o'yinchoq bo'lib qolsam?

Po'lat yana hiqillab yig'lay boshlagan edi, kuchukcha vovullab, boshi bilan imlab, yuzi bilan eshikka ishora qildi.

-Nimani o'ylab topding?- so'radi Po'lat.- Seni tushunmayapman. Bu qanday ertak bo'ldiki, kuchuk odamlarday gapirmasa?

Kuchukcha vovullayverdi.

-Menga, xonadan chiq, deb aytyapsanmi?- so'radi Po'lat.

Kuchuk boshi bilan imladi, Po'lat hayron bo'lib pastga karadi:

-Men shu tepalikdan tushishim kerakmi?

Kuchukcha to'rt oyoqlab sakradi va kallasini silkitdi, Shunda Po'lat kuchukning quloqlarida ipning uchini ko'rdi.

-Seni yechib yuborishim kerakmi?- qo'rqa-pisa so'radi Po'lat.

Kuchukcha jahl bilan vovullab, kallasini bilan imlab, noroziligini bildirdi. Po'lat kuchukchani boshini siladi, uning quloqlari alohida to'qilib, tanasiga biriktirib qo'yilganini ko'rdi.

-Menga qulog'ingning bittasini yechib yuborishga ruxsat beryapsanmi?- so'radi Po'lat.

Kuchukcha xursand bo'lib, bosh irg'adi. Po'lat ipning uchini ushlab, tortib, yecha boshladi. Ipning uchini stol chirog'iga bog'ladi. Keyin kuchukni

bir qo‘liga olib, bir qo‘li bilan ipni ushladi, keyin ikkovlari ohista polga tusha boshladilar. Ip borgan sari chuvalashib borar, quloq esa qatorma-qator yechilib borardi. Shunday qilib, do‘stlar pastga tushishdi. Kuchukcha bitta qulog‘idan ayrildi. Uning qulog‘i yozuv stolidan polgacha cho‘zilib tushgan edi.

Po‘lat xafa bo‘lib, chuqur nafas oldi, kuchukcha vovullab, eshikni ko‘rsatdi. Eshik oxirigacha yopilmagan, qiya edi. Po‘lat yo‘lakka o‘tdi, ortidan kuchukcha ham o‘tib, ipdan to‘qilgan bolani oshxonaga olib bordi. O‘sha yerda, katta qafasda ipdan to‘qilgan emas, haqiqiy to‘tiqush yashardi. Uning idishida maxsus hayvonot do‘konida sotiladigan, qushlarning mazali yemishi bor edi. Po‘lat kuchukcha nima o‘ylaganini anglab yetib, xursandligidan baqirib yubordi:

-O kuchukcham! O‘h aqligim! Biz deraza dokchasiga donlarni sepib qo‘yamiz. Shunda chumchuqlar uchib keladi, balki ular orasida o‘sha bezovtalangan chumchuq ham bo‘lishi mumkin!

Po‘lat do‘stining xavotirlanib vovullashiga e’tibor bermay, qafasning temir simlari orasidan tiqilib kirdi. Uning vovullashini eshitmaslikka olib, idishdagi donlarni shosha-pisha oshxona poliga to‘kdi. Bir zumda kimdir uning kallasidan changallab, tepaga uloktirdi. Po‘latning oldida katta to‘tiqush turardi. Po‘lat qo‘rqib ketganidan baqirib yubordi. Aslida to‘tiqush katta qush emas, lekin Po‘lat ham haqiqiy bola emas, o‘yinchoq. Po‘latdan qo‘rqib ketib, vahimaga tushgan to‘tiqush o‘g‘rini yana bir marta cho‘qishga shaylandi.

-Iltimos, yemishingdan ozgina olay,- yalinib so‘radi Po‘lat.- Yana odamga aylanishim uchun bu menga juda ham muhim.

To‘tiqush Po‘latning oldiga uchib keldi. Odatda, to‘tiqush kayfiyati chog‘ paytida qafasidagi arg‘imchog‘ini uchib, vaqtini xushlardi. To‘tiqush tumshug‘i bilan uning qo‘lidan ushlab, o‘sha arg‘imchog‘iga o‘tqazdi. Keyin u Po‘latning yoniga o‘tirdi va bir maromda tebranib, nasihat qo‘shig‘ini boshladi:

Agar senga nimadir kerak bo‘lsa, so‘ra!  
Og‘ir vaqtlarda biz yordam beramiz.  
Odamga aylanishni istayapsan, xo‘sh, nimaga?  
Ruxsatsiz olyapsan mening donimni?  
Oh naqadar yomondir makkorona o‘g‘irlik!

Po‘lat uyalib ketdi:

-Kechir meni, ey muruvvatli qush, men o‘ylamabman bu qilayotgan ishim yomon deb. Men faqat o‘zimni qutqarish yo‘lini qidirdim, xolos.

To‘tiqush Po‘latni tumshug‘i bilan ushladi, qanotlarini yoyib, ikkovi birga sepilgan donlar oldiga tushdi. Po‘lat yana dondan ozgina polga tashladi, xursand bo‘lgan kuchukcha dumi bilan donlarni qo‘l sochiqqa yig‘di. Po‘lat qushning qafasidan chiqdi. Kuchukcha bilan birga qo‘l sochiqdagi donni oshxonaning burchagiga olib keldi. Bu donlarni chumchuqlar kelib yeyishini Po‘lat istayotgan ekan, qanday qilib dokchaga chiqarib qo‘yish kerak? Po‘lat to‘tiqush

o'rgatganlarni eslab, yana qafas oldiga bordi:

-Qadrli do'stim,- dedi u qushga murojaat qilib,- bizga yana bir kichkina yordaming kerak. Mana shu ajoyib donlarni deraza tokchasiga olib chiqishimiz kerak. Yordam berib yuborgin,keyin yana bir yordam bersang, kuchukcha ikkovimiz ham tokchaga chiqib olardik.

-Do'stginam, - qat'iy ohangda javob berdi to'tiqush,- sizlar saboqdan to'g'ri xulosa chiqaribsizlar. Qafas eshigini ocholsangizlar, men sizlarga yordam bergan bo'lardim.

Po'lat qafasning eshigini ochishga kirishdi-yu, birdaniga to'xtadi:

-Ie, nima qilyapman, o'zi? Aziz do'stim, qafasdan chiqqaningdan so'ng ochiq derazadan uchib qochib ketsang, keyin nima bo'ladi? Xo'jayining Aziza qattiq xafa bo'ladi-ku! Unda qanaqasiga xayrli ish qilgan bo'laman?! Yo'q, bu ishim to'g'ri bo'lmaydi!

-Sen haqsan, do'stim,- viqor bilan javob berdi to'tiqush,- biz erksevar qushlarmiz. Agarda shunday imkoniyat bo'lib qolsa, qafasni butunlay tark etishga harakat qilamiz. Lekin sen, men qochib ketishimdan ko'ra, Azizani nohaq xafa qilishdan ko'proq qo'rqyapsan. Lekin boshqalar shunday qilgan taqdirda ham, men uni hych qachon xafa qilib yig'latmaganman.

Po'lat-ip xotirjam bo'ldi, qafasning eshigini ochdi. To'tiqush qo'l sochiqning uchlarini changallab, tokchaga olib chiqdi. Keyin Po'lat bilan bir quloqli kuchukni ham o'sha yerga olib chiqdi. Keyin va'da berganday, o'z qafasiga qaytib kirdi. Soat millari 04:30 ni ko'rsatardi. Ko'chada esa chumchuqlar chug'urlashardi. Po'lat dasturxondagi donlarni olib, ochiq derazadan sepdi. yerga sepilgan donlarga uchib kelgan chumchuqlarning qiy-chuvini birpas tomosha qilib turdi. Chumchuqlar orasida o'sha pahmoq chumchuq ham bor edi. U jahl bilan sheriklarini turtib, qizg'anchilik bilan boshqalarning donini tortib olardi. Ozuqa juda shirin edi. Chumchuq bunaqa donni birinchi bor tatib ko'rishi edi. Bu maxsus vitaminli ozuqa bo'lgani sababli, bir zumda chumchuqning patlari silliq bo'lib qoldi. U bu holatdan ham qo'rqar, ham xursand bo'lib sakrardi. Po'lat ham xursandligidan turgan joyida sakrar, chapak chalar, ochiq derazadan chumchuq yoniga tushishni xohlardi. Lekin ip-odamcha qanday qilib tusha olardi?! Shu payt oyog'iga yumshoq bir narsa tekkanini sezdi, kuchukchani yuzi ekan. Kuchukcha Po'latga ikkinchi qulog'ini berdi. Xuddi oldingisiday, tanaga ulab qo'yilgan quloq ipining uchi arang ko'rinib turibdi.

-Men yana odamga aylanishim uchun qulog'ingni qurbon qilasanmi?- so'radi Po'lat. Kuchukcha xursand bo'lib vovulladi, Po'latni ko'ndirish ko'pga cho'zilmadi. U tugunchani yechdi, ipning uchini mahkam ushlab, ochiq derazadan sakradi. Bir soniyada u qiy-chuv qilayotgan chumchuqlar o'rtasida paydo bo'ldi. Qorni to'q, mamnun chumchuqlarning mehr to'la ko'zlariga qaradi. Qushlar bunday "bosqinchilik"dan avvaliga qo'rqmadilar, tushunarsiz narsani

qiziqish bilan tomosha qildilar: qiziq, bu mavjudot na bolaga, na biror buyumga

o'xshaydi-ya. Hatto oralaridagi dovyurakroq chumchuq bu mavjudotni cho'qib ko'rmoqchi ham bo'ldi, lekin jur'at qilolmadi. Hamma chumchuqlar daraxtga uchib chiqib oldi.

Ipdan to'qilgan kichkina bola shaklidagi buyum o'sa boshladi va haqiqiy bolaga aylanib qoldi. Bahaybat qushlar hamma yoqni changitib, qiy-chuv bilan daraxtga uchib chiqdi, Po'lat qushlarning parillab uchishidan cho'chib tushdi. U qo'llariga qaradi, qo'llari oddiy odamlarning qo'llariga o'xshab asl holiga qaytgan edi. Po'lat badanlarini chimchilab ko'rdi. Ilgarigi holatga qaytib, deraza oldida turganini angladi. Xursand bo'lib uyiga ketdi. Xonasiga asta kirib, uxlashga yotdi.

Ertalab Aziza nonushta qilgani oshxonaga kirdi.

-Mo'jizalar yuz beryapti,- dedi buvisi likopchaga bo'tqa solar ekan,- qarasam, to'tiqushimiz Kesha arg'imchog'ida uchib o'tiribdi, qafas eshigi ochiq. Kim ochgan bo'lishi mumkin?

-Voy buvijon, kuchukcham deraza tokchasida o'tirgan ekan. Quloqlari esa yo'q! Kuchukchamning quloqlari qaerda ekan-a?

Buvi bilan nevara uyda yuz bergan ajoyib voqyealar haqida o'yladilar, lekin biror sabab topa olmadilar. Aziza bo'tqasini yeb bo'lgach, ip va ilmog'ini olib, hovliga chiqib ketdi. Po'lat bo'lib o'tgan tungi vokealarga qaramay, har doimgiday o'rnidan turdi, nonushta kilib bo'lgach, qo'shni hovliga chiqib ketdi. U yerda Azizani ko'rdi. Aziza quloqlari yo'qolib qolgan kuchukchasiga quloq to'qib skameykada o'tirgan ekan. Uning yonida chumchuq xursand bo'lib sakrab yurardi. Po'lat bularni ko'rib, xursand bo'lib ketdi, lekin hali cho'zma otari bor bolalar borligini ko'z oldiga keltirib, afsuslandi. Axir, u o'zining cho'zma otarlarini tashlab yuborgan edi.

## Pianino

Tanaffus paytida Maqsud koridordagi deraza oldida turgan edi. Uning yonginasida ikkita boladan biri: "Men Xudoga ko'p ishonaman", deb aytsa, ikkinchisi: "Yo'q, sen emas, men ko'p ishonaman" deb qattiq bahslashib qoldilar. Valijon dedi:

-Men yilda ikki marta imonlilar jamoatiga boraman!

-Men har doim ro'za vaqtida ro'za tutaman!- javob berdi Karim.

Valijon esa :

-Men anchadan beri yomon so'zlarni gapirmayapman! - dedi.

-Meni esa ota-onam chaqaloqligimdan birov bilan urishmaslikka o'rgatgan, shuning uchun yomon so'zlarni hatto bilmayman ham!- mag'rur javob berdi Karim.

Valijon bilan Karim darsga kirish qo'ng'irog'i chalinguncha bahs qildilar, darsdan so'ng boshqa bolalar bilan futbol o'ynash uchun maktab hovlisiga chiqishdi. Maqsud yosh futbolchilar yonidan o'tib ketdi. U musiqa maktabiga yo'l oldi. Valijon Karimga dedi:

-Ana, Maqsud musiqa to'garagiga ketyapti.

-Musiqa- bu yaxshi!- dedi Karim. - Valijon, sen pianino chalishni bilasanmi?

-Bilmayman, chalib ko'rmaganman,- dedi yelkasini qisib Valijon.

Maqsud buni eshitib, kuldi:

-Agar chalib ko'rmagan bo'lsang, demak, chala olmasliging aniq.

Valijon xafa bo'ldi:

-Ha, faqat sen chalishni bilasan, xolos. Bu yaqin atrofda pianino bormi?

-Men bilan yur musiqa to'garagiga, u yerda qanday chalishingni ko'ramiz.

Valijon Maqsud bilan musiqa maktabiga kelib, fortepiano turgan xonaga kirdi. Valijon musiqa asbobiga yaqinlashib, uni pala-partishlik bilan ochdi.

-Xo'sh, bu asbobda qaysi musiqa chalinadi?- Valijon klavishlarni bosib, ovozigga quloq tutdi. - Eshitdingmi? Mana buni musiqa desa bo'ladi! - xursand bo'lib dedi u.

Maqsud hayron bo'lib:

-Qanaqa musiqa? Faqat klavishlarini bosding, xolos, - dedi.

-Bu klavish deyiladimi?- deb, Valijon pianino oldiga o'tirdi.-Bunaqa klavishlar bu yerda nechta?- U qo'lini hamma klavishlar ustida yurgizdi va xursand bo'lib gapirdi: - Musiqa... Men pianino chalishni bilaman. Qara, klavishlarni bossang bo'ldi- musiqa chalinaverar ekan-ku!

-Odamlarning ustidan kulma,- achchiqlanib gapirdi Maqsud,- yaxshisi, pianinoni birinchi marta ko'rib turibman, shunday cholg'u asbobi borligini endi bildim, deb aytgin.

- Axir, hozirgina uni chalib ko'rdim-ku! O'zing ham eshitding!- achchiqlanib dedi Valijon.

-Unda sen qaysi notada chalganing ayt-chi!- bilmoqchi bo'ldi Maqsud.

-Nota nima?- hayron bo'lib so'radi Valijon.- Hali bu yerda nota ham bormidi? Demak, oq ranglisi- bu klavish, qorasi esa nota ekan-da? Notani esa hali chalmabman.

Shu payt musiqa o'qituvchisi kelib qoldi. Maqsud esa Valijon bilan tortishishga vaqtini sarf qilishni xohlamadi. Maqsud pianinoning ro'parasiga o'tirib, Valijonga dedi:

-Menimcha, sen qanday pianinochi bo'lsang, xuddi shunday imonlisan.

-Nimaga bunday deyapsan?- dedi jahli chiqqan Valijon.

-O'shanga,- dedi Maqsud Valijonga. Valijon Karimga tanaffusda aytgan gapini Maqsud aynan takrorladi: - "Yilda ikki marta jamoatga boraman".

## Qarg'a va jo'ja

Jo'ja shovqin-suronli tovuqxonadan xovliga chikdi. Quyosh charaqlab chiqqan, boshi uzra qovoqarilar uchib yurardi. Jo'ja yerda qadam tashlab yurar, nimadandir juda xursand edi. Balki quyosh charaqlab turganidandir, balki arilar vizillab, uchib yurganidan bo'lishi ham mumkin, balki, u kichkina bo'la turib, hozirdan kuyosh chiqishiga, qovoqarilar vizillashini bilishiga aqli yetganidandir.

Jo'ja don, gullar urug'i, o't-o'lanlar bilan oziqlanar, ular juda ham mazali bo'lib, u "mazali" degani nima ekanini tushunardi. Unga nafaqat don va urug'lar bilan, yana mayda toshchalar bilan oziqlanishni ham onasi o'rgatgandi, chunki bu toshchalar oshqozondagi ovqatni hazm qiladi. Toshchalar mazali emasdi-yu, ularsiz urug'larni yeyish befoyda edi. Jo'ja itoatkor ekanligidan juda xursand, chunki nafaqat mazali ozuqalar bilan, balki hazm qilishga yordam beradigan ozuqalar bilan ham ovqatlanyapti-da. Shunchalik itoatkor ekan, demak, u haqiqatan ham aqlli.

Kutilmaganda jo'ja tepasida qandaydir xirillagan "Qag'-qag'-g'-g'..." degan ovozni eshitdi. Uning yo'lida qanaqa ahmoq jonzot uchradi ekan? Jo'ja atrofga karadi, lekin qag'illayotgan qarg'adan boshqa hych narsani ko'rmadi. Qarg'a cho'chqalarga ovqat beradigan tog'ora ustida o'tirgan edi. Qarg'a jo'jani ko'rib, qag'illadi:

-Bundan ahmoqroq jonzotni uchratmaganman!

Jo'ja bunaqangi suhbatni davom ettirish odobdan emasligini bilib, hovlida yo'lini davom ettirdi. Qarg'a bo'lsa tog'oradan sakrab tushib, jo'janing yo'lini to'sdi:

-Bundanda ahmoqroq janzotni topolmaysan!

Jo'ja qayoqqa qochishini bilolmay qoldi, muloyimlik bilan qarg'adan so'radi:

- Kimdan ahmoqroq?

Qarg'a xoxolab kuldi, qattiq kulaverganidan hatto qorni og'rib qoldi.

Nihoyat, tinchlanib, javob berdi:

- Sendan ahmoqroq!

Jo'jaga havo yetishmay, boshi aylanayotganday bo'ldi. Ehtimol, quyosh juda ham yorqin charaqlab turganidan yoki qovoqarilarning qattiq vizillashidan bo'lsa kerak. Jo'ja qarg'aning nafratli tikilishidan xayajonlanib, yashirinishga joy izlab qoldi. Boshini pastga egganicha, yerdan toshchalarni terib, yuta boshladi. Toshchalar oshqozondagi urug'larni tozalash uchun foydali ekanini esidan chiqarib qo'ydi. Kichkinagina oshqozoniga toshchalar og'ir botdi, jo'ja mungli ohangda chiyilladi. Qarg'a xursand bo'lib xoholadi:

-Aytdim-ku, bunaka ahmoq jonzot topilmaydi deb!

Jo'ja og'ir ahvolga tushib, yordamga chaqirganini tovuq eshitdi-yu zudlik bilan yordamga shoshildi. Qarg'ani ko'rib, qanotlarini hurpaytirdi-da, qattiq qag'illadi. Qarg'a qo'rqqanidan qochib ketdi.

Ona tovuq jo'jasidan so'radi:

-Kichintoyim, nimaga g'amginsan? Biror joying og'riyaptimi?

Jo'ja javob berdi:

Qornim bilan boshim og'riyapti, yana qarg'a aytdiki, men ahmoq emishman.

Ona tovuq muloyimlik bilan so'radi:

-Shuning uchun boshing og'rib qoldimi?

-Ha,- xafa bo'lib xo'rsindi jo'ja.

Ona tovuq tumshug'i bilan bolasining boshini asta silab, dedi:

-Demak, sen haqiqatdan ahmoqsan. Qanday qilib birinchi marta duch kelgan qarg'aga ishonish mumkin?! U bunaqa ahmoqona so'zlarni hal ko'p aytishi mumkin! Bilib qo'y: kim seni yaratgan bo'lsa, faqat Unga ishongin! U hamma tirik jonni donolik bilan yaratgan!

Bu so'zlardan keyin jo'jacha nimagadir juda ham xursand bo'lib ketdi. Boshi uzra quyosh charaqlardi! Qovoqarilar esa vizillardirdi! Jo'ja hovlida yurib, donni, urug'larni va toshchalarni terib yerdi. U baxtli edi, negaki endi boshqa hyech kim uni ahmoqona ish qilyapsan, deb ishontira olmaydi.

## **Baxt shahri**

Qadim zamonda bir qishloqda Arazchi, Badjahl, Tanqidchi va Qizg'anchiq yashagan ekan. Ular juda ham tolei past ekanlar. Ishonmaysizmi? Ishonavering, haqiqatdan ham shunday edi. Axir, o'zlarining ismiga mos xulq-atvor bilan qanday baxtiyor bo'lishsin?! Agar kimdir Arazchini xafa qilib, buning uchun yomonlik ko'rmasa, u o'zini baxtsiz hisoblarkan. Badjahl esa har bir odamga yomonlik kilolmaganidan baxtsiz ekan. Tanqidchi esa hammani tanqid qilolmaganidan, Qizg'anchiq esa kimningdir biror narsasi unikidan ko'p bo'lishidan vahimaga tushib, qo'rqib yasharkan.

Bir kuni bu qishloqdan bir musofir o'tib ketayotgan ekan. Qizg'anchiq uni tezda chamalab ko'rib, bu musofir kambag'al ekan-ku, deb xotirjam bo'libdi. Lekin uyining eshigini mustahkam qilib yopib qo'yibdi. Badjahl bechora musofirning ustidan kulib, bunaqalarni hamma xafa qilsa bo'laveradi, deb o'ylabdi. Tanqidchi kallasini kimirlatib: "Kiyimi xozirgi rusumda emas ekan, qaddi-qomati ham ko'rimsiz ekan", debdi. Arazchi esa musofir unga e'tibor

bermaganidan xafa bo'libdi.

Musofir kursiga dam olish uchun o'tiribdi. Uning oldiga Arazchi kelib, mayus ovozdagi gapiribdi:

-Oldimdan xuddi men yo'qday o'tib ketding. Sen meni xafa qilding, ey notanish odam.

Musofir Arazchiga shunday javob beribdi:

-Kechir agar shunday ayb ish qilgan bo'lsam.

Arazchi so'rabdi:

-Qaerga ketyapsan?

-Men hamma baxtiyor yashaydigan shaharga ketyapman, chunki u yerda hamma o'z orzusiga yetar ekan,- deb javob beribdi musofir va yana yo'lga o'tlanibdi.

Arazchi o'ylab, o'sha ajoyib shaharni topish kerak, deb qaror qilibdi.

Shunda Arazchining orzulari amalga oshadi: qachondir uni kim xafa qilgan bo'lsa, shafqatsiz ravishda jazosini oladi.

Arazchining musofir bilan gaplashganini Badjahl eshitib, u ham hamma orzulari bajo bo'ladigan shaharga borishga qaror qilibdi. Nihoyat, kim unga yoqmasa, o'shanga yomonlik kilishga erishadi. Tanqidchi ham Badjahldan qolishmadi, axir, bunday imkoniyatni qo'ldan chiqarib yubormaslik kerak. Hyech kim Tanqidchiga tenglasholmasligi kerak. Shunday paytda boshqalarning kamchiligi son-sanoqsiz ekaniga hammani ishontirish orzusini amalga oshirmay bo'ladimi?! Qizg'anchiq ham orzulari bajo bo'ladigan shaharga shoshildi, chunki yaxshi narsalarning hammasi unga, faqat ungagina nasib bo'ladi.

Arazchi, Badjahl, Qizg'anchiq va Tanqidchi – hammasi birgalikda yo'lga o'tlanishdi. Ular orzu qilgan narsalarga erishishlariga butunlay ishonardilar. Ular yo'lda ketayotib, bir-birlariga qarashmas edi, chunki bir-birini yomon ko'rishar, hammalari o'zi haqida o'ylardi. Qizg'anchiq yo'l uchun olgan ozuqasini yeb bo'lgandi, Arazchi vaysab:

-Ha, sen Qizg'anchiq! Hech kim bilan bo'lishmading-a, - dedi.

Qizg'anchiq javob berdi:

-Nimaga xafa bo'lyapsan? Nima, senga o'z zimmikini berishim kerakmidi?!

He seni qara-yu, Arazchi!

Badjahl baqirdi:

-Tortishishni bas qilinglar! Doim janjal qilganlaringiz- qilgan! Jahlimni chiqarmanglar!

Arazchi bilan Qizg'anchiq Badjahлга tashlandilar:

-Agar hamma sening g'ashingga tegayotgan bo'lsa, uyda o'tir! Badjahl!

Faqat Tanqidchi sukut saqlar, lekin ichida o'ylardi: "Meni mana shunday past odamlar o'rab olgan! Qizg'anadi, jahlini har kimga sochadi, urishadi! Men yo'l bo'yi ularga toqat qilishimga to'g'ri keladi".

Kutilmaganda yo'lda jarlikka duch keldilar. Rostakamiga jarlik!

Yo'lovchilarning boshi qotdi. Nima qilish kerak?

O'rmonda baland daraxtlar o'sib yotgan ekan. Ular jarlikdan o'tishga yo'l qilish uchun daraxtlardan eng baquvvatini qidirib ketishdi. Topishga-ku topdilar-



a, lekin uni kesib, jarlik ustiga olib borish kerak edi. Buni qanday qilish mumkin, axir, ular to'xtovsiz tortishib, janjallashaversalar?

Janjalu tortishuvni to'xtatib, ishga kirishdilar. Hammalari birgalikda daraxtni yiqitdilar. Shoxlarini butab, jarlik yoniga olib bordilar va narigi qirg'og'iga bir uchini qo'ydilar. Endi yurib o'tsa bo'ladi. Faqat xavfli. Yakka-yakka o'tish xatarli, pastga tushib ketish xavfi bor. Bir-biriga ichdan g'anim bo'lganlar mahkam qo'l ushlab, xavfli yo'lni bosib o'tish uchun xodaga qadam tashladilar. Bir-birlari uchun qayg'urib, hych kim tushib ketmasin deb, asta-sekin qadam tashlay boshladilar. Agar bittasi pastga tushib ketsa, tamom - ortidan boshqalari ham ketadi. Hamma halok bo'ladi. Shunday o'y-fikr bilan jarlikning narigi tomoniga o'tib oldilar.

Nihoyat, o'tib olganlaridan keyin bir-birlaridan ayrilib, yolg'iz ketishlari mumkin edi. Lekin ular eson-omon o'tib olganlari va tirik qolganlari uchun o'zlarida yo'q xursand bo'lib ketdilar, bir-birlarini quchoqlab, yig'lab yubordilar. Endi ular bir-birlaridan ayrilishni xohlamas edilar. Hammalari bir-birlarining qo'llarini ushlaganlaricha yo'lda davom etdilar. Ular bir-birlariga tabassum bilan boqishardi, chunki o'zlariga yangi hayotni kashf qilgan edilar.

Ancha yurganlaridan keyin katta daryoga duch keldilar, daryoning o'tish joyi yo'q ekan. Sinchiklab karashgan edi, narigi qiroqda turgan qayiqni ko'rib qoldilar. Fakatgina Badjahl suzishni bilar edi, u taklif berdi:

-Sizlar shu yerda turinglar, men qayiqni olib o'taman.

Arazchi, Tanqidchi va Qizg'anchiq qirg'oqda kolishdi. Badjahl mashaqqatlar bilan bo'lsa ham narigi qirg'oqqa suzib bordi. Suvdan chiqib, qo'l uzatsa yetadigan, juda yaqindagi shaharni ko'rdi. O, hamma orzular amalga oshadigan o'sha shahar! Badjahlning ortga qaytgisi kelmas edi, bir qadam tashlasa bo'ldi – u maqsadiga yetadi. Lekin Badjahl qayiq tomon yurdi, qayiqni olib, narigi qirg'oqda kutayotgan hamrohlari tomon suzdi.

Yo'ldoshlari Badjahlni kutib, o'zlaricha mulohaza qilishardi:

-U badjahl bo'lsa ham, cho'kib ketsa, katta yo'qotish bo'ladi.

-Agar baxt izlab chiqqan bo'lsa, demak, unchalik yomon emas.

Badjahlni qirg'oqda hamrohlari kutib oldilar, hammalari baravariga "Ura!" deb baqirdilar. Qizg'anchiq to'nini yechib, qayiqdan chiqqan Badjahlga uzatdi:

-Isinib ol, do'stim.

Sayohatchilar qayiqda suzib ketishar ekan, Badjahl ularga shahar haqida so'zlab berdi. Birinchi bo'lib Tanqidchi gapirdi:

-Sen hych ham yomon emassan, yaxshisan! Bizni tashlab ketmading.

Badjahl dedi:

-Sen ham hych tanqidchi emassan, juda yaxshi yigitsan, yaxshi so'zlarga boysan.

Arazchi jilmayib dedi:

- Qizg'anchiq aslo qizg'anchiq emas. To'nini umuman qizg'anmadi. Men

esa, meni maqtashmayotganiga xafa bo'lmayapman.

Hammalari daryoning narigi tomoniga o'tib, o'zlari izlab kelgan ajoyib shaharni ko'rdilar. Shaharda haqiqatan ham juda baxtli odamlar yashar ekan. Bilasizmi, shahar hokimi kim ekan? Ha-ha, bizning sayohatchilarimizga noyob shahar haqida gapirib bergan o'sha notanish odam ekan. U ham sayohatni yaxshi ko'rarkan, dunyo bo'ylab yurib, barcha tolei pastlarni orzulari amalga oshadigan shaharga taklif qilar ekan.

-Muhtaram yo'lovchilar, og'ir yo'l ortda qoldi. Siz mukofotga nima olishni xohlaysiz? - so'radi shahar hokimi yangi fuqarolardan. - Sizlar nimani orzu kilgan edingizlar?

Qizg'anchiqmas gapirdi:

-Nimani orzu qilganimni eslashga uyalaman.

Badjahlmias gapirdi:

-Menga o'tmishimni eslash uyat.

Tanqidchimas gapirdi:

-Tan olishim kerak, men ham uyalaman.

Arazchimas gapirdi:

-Men esa hyech narsani eslolmayman. Men shunchalik baxtlimanki!

Ha, haqiqatan ham saxiylik, muloyimlik, xayrixohlik, dilkashlik kabi ajoyib insoniy fazilatlari bor inson baxtsiz bo'lish mumkinmi?!

## Mundarija

Zubtulum.....	5
Qo'ng'iz, odam va atirgul.....	8
Qorbobo.....	12
O'rmondagi qurbaqa va qo'ziqorin to'la savatcha ..	28
Dada, futbol va matematikadan uy ishi.....	33
Oq yo'!.....	36
Sakkizoyoq.....	48
Tovuq.....	50
To'quvchi Aziza.....	54
Pianino.....	65
Karg'a va jo'ja.....	68
Baxt shahri.....	72

Baxt shahri

Bolalar va kattalar uchun ertaklar

Bosh muharrir F. Mulukovn

Badiy muharrir G. Mahmudov

Rassom A. Suleimanova

Musahhih S. Ignatenko

Kompyuterda sahifalovchi D. Ivanov

## **Bolalar va kattalar uchun ertaklar**

Xasislik, qo‘pollik, to‘ngso‘zlik va dangasalikning oqibati nima bo‘ladi? Qanday qilib xafagarchilik va sotqinlikni yengish, odamlar bir-birlari bilan do‘stlashishlari mumkin? Shu kabi hayotiy savollarga Yelena Sokolova masihiylik axloqiga asoslangan holda, ortiqcha nasihatgo‘ylik qilmasdan javob beradi. Bunday vazifani uddalashga uning hayotiy tajribasi, ya'ni bolalar bilan ishlashdan orttirgan tajribasi yordam beradi. Muallif bolalarning yuragiga yetib borish yo‘llarini, ular bilan qanday gaplashish kerakligini biladi. Shu bilan birga, bu kitob kattalarga ham qiziq, undan ancha foydali narsalarni o‘rganishlari mumkin. Mazkur kitob kelajak avlodni tarbiyalash va bolalarning ruhiyatini tushunishda qo‘l keladi.

Kitob muallifi Yelena Sokolova, 19 asrdan boshlab masihiylik urf-odatlarini avloddan- avlodga o‘tib kelayotgan masihiy imonlilari sulolasida tug‘ilib o‘sgan. U yillar davomida masihiy jamoatida bolalar bilan ishlab kelmoqda, hayotning har bir jabhasida Xudoning Kalomi o‘z ta'sirini ko‘rsatishiga bolalarga yordam bermoqda. Bolalar kiyin mavzularni oson o‘zlashtirsinlar deb, har xil sahnalar, o‘yinlar o‘ylab topadi, ertaklar yozadi. U umr yo‘ldoshi bilan birga oltita farzandni tarbiya qilmoqda.